

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI  
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA FAKUL‘TETI

“Tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi  
15.14-guruh bitiruvchisi No‘monjonova Mohinur Xusniddin qizining

**“Tasviriy san‘at va uning shaxs ma‘naviyatini  
yuksaltirishdagi o‘rni”  
mavzusidagi**

# **BITIRUV**

# **MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar: Katta o‘qituvchi B.M.Qurbonova

Farg‘ona – 2019

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2019 yil 6 maydagi 9-yig'ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri \_\_\_\_\_ S.Mannopov

Taqrizchilar    1. B.Qurbonov (ichki taqriz)  
                      2. D.Exsonov (tashqi taqriz)

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>I-BOB.TASVIRIY SAN’ATNI VUJUDGA KELISHINING TARIXIY ILMIY NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI.....</b>	<b>7</b>
1.1.Tasviriy san’atni vujudga kelishining tarixiy ildizlari.....	7
1.2.Tasviriy sanat vujudga kelishining ilmiy-nazariy asoslari.....	20
<b>II-BOB.TASVIRIY SAN’ATNING MANAVIY XAYOT BILAN BOG’LIQLIGI.....</b>	<b>39</b>
2.1.Mustaqillik yillarida tasviriy san’atning rivojlanishi.....	39
2.2.Tasviriy san’atning manaviy hayotdagi o‘rni va ahamiyati.....	52
<b>XULOSA VA TAVSIYALAR .....</b>	<b>70</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>71</b>
<b>INTERNET SAHIFALARI.....</b>	<b>73</b>

## KIRISH

*Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tarihimiz bor,  
havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor,  
havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor  
va men ishonaman, nasib etsa havas qilsa arziydigan  
buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san‘atimiz  
ham albatta bo‘ladi”<sup>11</sup>.*

***Sh.M.Mirziyoyev***

### **Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi:**

2018 yil – “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab quvvatlash yili” Davlat dasturi doirasida amalgam oshirilgan loyihalar natijalari. “Yoshlar – kelajagimiz” kabi dasturlar doirasida amalga oshirilgan biznes loyihalar. Maxalliy byudjetda qoldirilgan qo‘shimcha mablag‘larning xudud rivojlanishiga ta’siri. “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida amalgam oshirilgan qurilish va obodonlashtirish ishlari. O‘tgan yilda ilm-fan, ta’lim-tarbiya, madaniyat va san‘at, sport sohalarini rivojlantirish yo‘lida qo‘yilgan muhim qadamlar. Yoshlarning ilm-fanga bo‘lgan intilishlarini ro‘yobga chiqarish.<sup>2</sup>

Ana shunday jadal rivojlanib borayotgan mustaqil davlatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bugungi kun yoshlari oldiga barcha sohalarda o‘ta ma’suliyatli vazifalarni amalga oshirishni maqsad qilib qo‘ymoqda. Shu jumladan tasviriy san‘at sohasi ham bundan mustasno emas. Oliy o‘quv yurtlarining badiiy grafika yo‘nalishlarida malakali kadrlar tayyorlash maqsadida bilimdon yoshlarga sohaning har bir yo‘nalishi bo‘yicha mukammal bilim va ko‘nikma, malaka berish maqsadida yangilik hamda yutuqlar ustida ko‘plab samarali ishlar olib borilmoqda. Biz tanlagan bitiruv malakaviy ishi mavzusi ham anashunday vazifalardan birini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

---

<sup>1</sup> **Sh.M.Mirziyoyev.** Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustaxkam poydevoridir. O‘zbekiston ijodkor ziyolilar vakillari bilan uchrashuvigim ruzasi.

<http://uza.uz/politics/adabeot-va-sanat-03-08-2017->

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy majlisga

murojaatnomasi/<http://uza.uz/o‘z/politics/Ozbekiston-Respublikasi-Shavkat-Mirziyoyevning-Oliyas-28-12-2018>

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi tasviriy san'atning o'ziga xos xususiyatlari orqali borliqdagi va san'atdagi go'zalliklarni ko'ra bilish, idrok etish, tushunish va qadrlashga o'rganish; estetik va badiiy didni o'stirish; inson badiiy fikr doirasini kengaytirish; ijodiy asarlarni tahlil qilish orqali badiiy tafakkurni rivojlantirish; tasviriy san'atning nazariy asoslari bilan tanishtirish; rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika kabi tasviriy san'at turlarini o'rganishga ko'nikma va malakalar hosil qilish; kuzatuvchanlik, ko'rish xotirasi, chamalash qobiliyati, fazoviy va obrazli tasavvurlarni, abstrakt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish; tasviriy, amaliy me'morchilik san'at asarlarini tushungan holda o'qiy olishga o'rganish; san'atga asarlariga qiziqish uyg'otish, uni qadrlashga, sevishga o'rgatish natijasida shaxs ma'naviy yuksalishini rivojlantirish.

### **Bitiruv malakaviy ishning o'rganilganlik darajasi:**

Quyida keltirilgan mualliflarning ishlarini o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, tasviriy san'at fanidagi ta'lim jarayonida san'at asarlarini o'rganish natijasida badiiy barkamollikni shakillantirishni kuchaytirish muammosi ilmiy jihatdan yetarlicha o'rganilmagan.

Tegishli adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, shaxs badiiy tafakkurini rivojlantirishda boshqa san'at turlari kabi tasviriy san'at ham o'z tur va janrlari orqali ma'naviy yuksalish jarayonlarini o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Chunki mazkur muammoning ilmiy tadqiqi bo'yicha xorijlik olimlar Konfutsiy, I.Brodskiy, o'zbek san'atshunos va rassom pedagoglari A.Sulaymonov, R.Xudoyberganov, J.Umarbekov, S.Bulatov, R.Xasanov, E.Umarov hamda boshqalar tasviriy san'atning ma'naviy-tarbiyaviy, ta'limiy imkoniyatlarini ochib bergan. Lekin xali-xanuz tasviriy san'at sohasining shaxs ma'naviy kamolotidagi o'rni va ahamiyati yetarlicha o'rganilmagan.

Shu bois tadqiqotimiz mavzusini "Tasviriy san'at va uning shaxs ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni" deb nomladik.

### **Bitiruv malakaviy ishning maqsad:**

Shaxs ma'naviy kamolotini rivojlantirishda tasviriy san'atning o'rni va rolini o'rganish.

### **Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti:**

Tasviriy san'at tur va janrlari.

### **Bitiruv malakaviy ishning predmeti:**

Tasviriy san'at tur va janrlari orqali yaratilgan san'at asarlarining badiiy ahamiyatini o'rganish.

### **Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:**

Tasviriy san'at asarlarini o'rganish va badiiy tahlil qilish. Ushbu tahlil jarayonida shaxs badiiy ma'naviyatini yuksaltirish.

### **Bitiruv malakaviy ishning yangiligi:**

- mavzuning yangiligi quyidagilardan iborat;
- badiiy tasavvurni rivojlantirish;
- san'at asarlari orqali inson ongidagi badiiy qarashlarni nazariy o'rganish;
- san'at asarlarini nazariy tahlil qilish natijasida shaxs estetik madaniyatini rivojlantirish hamda tarbiyalash;

### **Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati:**

Tasviriy san'at orqali shaxs ma'naviy tafakkuri, madaniyatni rivojlantirish;

### **Bitiruv malakaviy ishning metodlari:**

- analitik tahlil;
- anketa, savol-javob, suhbat, intervyu;
- pedagogik kuzatuv;
- umumlashtirish va uzviylashtirish;

### **Bitiruv malakaviy ishining metodologiyasi.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning ta'lim to'g'risidagi va tasviriy san'at sohasini rivojlantirish to'g'risidagi qarorolari, tasviriy san'at fani kursi, yoshlarga oid davlat siyosati, kadrlar tayyorlash milliy dasturi vazifalari va boshqa nazariy manbaalarni umumlashtirish va uzviylashtirish.

### **Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:**

1. Tasviriy san'at va uning shaxs ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni ijtimoiy muammo ekanligi:

2. Tasviriy san'at va uning shaxs ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rnini shakllantirishning mavjud ijtimoiy tahlili:

3. Tasviriy san'at va uning shaxs ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rnini shakllantirishning imkoniyatlari:

4. Tasviriy san'at va uning shaxs ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rnini shakllantirishning samaradorligi.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi:** kirish, 2 bob, 4 paragraf, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **I-BOB.TASVIRIY SAN'ATNING VUJUDGA KELISHINING TARIXIY, ILMIY-NAZARIY METODOLOGIKASOSLARI**

### **1.1.Tasviriy san'atni vujudga kelishining tarixiy ildizlari**

Tasviriy sanat tarixining rivojlanish jarayonlari juda qadim zamonlarga eramizdan avvalgi davrlarga borib taqaladi. G'orlardagi devoriy rasmlar, toshdan va suyakdan yasalgan haykalchalar, tosh plitalardagi va kiyik shoxlari parchalaridagi naqshinkor estetik bezaklar hali inson badiiy ijodiyotini ongli ravishda tasavvur qilishidan birmuncha ilgari yuzaga kelgan.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek “Hozirgi kunda milliy ma'naviyatimiz rivojini tasviriy san'at namunalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbek rassomlarining keyingi yillarida samarali ijod qilib, yangi-yangi yutuqlarni qo'lga kiritayotgani, bu sohaga ko'plab yosh iste'dod egalari kirib kelayotgani uning ravnaqi va istiqbolidan dalolat beradi. Bunday ijobiy o'zgarishlarni monumental san'at sohasida ham kuzatish mumkin. Ma'lumki, monumental san'at deganda, avvalo katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan mahobatli haykallar va yodgorliklar majmualarini tushunamiz.”<sup>3</sup>

Sanatning paydo bo'lishi va insoniyatning ilk badiiy ijod namunalari ibtidoiy to'da davriga to'g'ri keladi. Jamiyat hayotining ruhiy va iqtisodiy asoslari endi shakllanayotgan bu davrni tarixchi va arxeolog olimlar o'zlarining olib borgan tadqiqotlari natijasida tasviriy sanatning dastlabki yodgorliklari yuqori poleolit davriga oid ekanligini tasdiqlaydilar. Ularning yozishicha ijod namunalarinig shakllanishi ibtidoiy jamoa tuzumining nisbatan etilishi, urug'chilikning shakllanishi, matriarxatning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Odamlar asta-sekin o'zlarining ilk ibtidoiy fikrlash g'oyalari asosida jismoniy sifatlari bilan hozirgisidan deyarli farq qilmagan. Ular so'zlashish, tosh, suyak, shoh va yog'ochdan nisbatan murakkab qurol yasash, ov bilan shug'ullanish malakasiga ega bo'lganlar. Mehnatga munosabat va faoliyatining kengayishi natijasida odamlarning fikrlash doirasi ham kengaydi. Qadimiy qabilalarning bir necha ming

---

<sup>3</sup> I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” 147-148 bet.



yillar davomidagi taraqqiyoti, ularning ko‘z qarashlari, qo‘l harakatlarining mayinlashuvi, asosiy va karakterli holatni ko‘rish, his qilish, tabiatga hos shakllar uyg‘unligi va go‘zallikni ilg‘ash qobiliyatlarini shakllantirgan.

Tabiat hodisalarining eng sodda shakllariga ham hayratlanish hissi bilan qaragan odam uni o‘rgandi, o‘zlashtirdi. Natijada “obraz” tushunchasi vujudga kelib, ular so‘zda tasvirda, ohanglarda o‘z aksini topdi. Atrof-muhitdan o‘ylamasdan nusxa ko‘chirish emas, balki tabiatni, hayotiy mehnat tajribalarini ijodiy ifodalash malakasi paydo bo‘la boshladi.

Qattiq jismlardan tosh, yog‘ochdan ishlangan mehnat quroli bilan ishlash jarayonida odamlar narsalarning xususiyatlari va turlari bilan tanishish, bo‘rtma va yuzaning o‘ziga hosliklarini aniq ilg‘ash hamda uni qabul qilishga o‘rgandilar. Bunda ovchilik hayvonot olamining xulq-atvorini kuzatish imkoniyatini berdi. Ibtidoiy odam samarali ov natijasini bir-biriga bayon qilish natijasida, hayvonot dunyosining o‘ziga xos ajoyib harakatlarini ilg‘ay bordi va ularni tasvirlarda ham aks ettirish harakatini kashf qildi.

Tosh asri davri sanat asarlari tabiiy ehtiyoj tufayli vujudga kelgan bo‘lib, qadimiy odam kundalik mehnat faoliyatining in‘kosi sifatida o‘z-o‘zidan tug‘ilgan dunyoqarashi natijasidir. Bu davrda inson hayoti mehnat qilish jarayoni, afsonalar majmui, sanat, sehr va ibtidoiy ilmiy tasavvurlar bo‘linmagan, yaxlit holda edi. Ibtidoiy odam o‘zini tabiatdan ajratmaydi, balki unga sehrli tasir etish mumkin deb hisoblaydi va buning asosida tabiatni sehr kuchi bilan o‘zgartirish mumkin degan fikr yuritadi.

Ilk insoniyat fikr va g‘oyalarida ov ko‘rinishlarini sahnalashtiruvchi ovchilar o‘yini, toshga chizilgan naqshlar, jonivorlarni tasvirlovchi chiziqlar afsunkor urf-odatlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular ibtidoiy odam tasavvuri bo‘yicha ovda muvaffaqiyat qozonishni taminlashi kerak edi. Jonivorlarni tasvirley bilishi asosida odamda xuddi ular ustidan g‘alabani qo‘lga kiritganday hissiyot mujassam edi. Bu fantastik fikrlashida insonning dunyoni egallashga bo‘lgan intilishi o‘z aksini topgan. Ushbu ilk ijodiy yaratuvchanlik jarayonida estetik tushunchaning dastlabki kurtaklari mavjud bo‘lib, shu asosda tasviriy sanat rivojlandi.

Tasviriy sanatning vujudga kelishi quyidagi yirik davrlarga bo'lingan:

1. Ibtidoiy jamoa tasviriy sanati.
2. Qadimgi dunyo tasviriy sanati.
3. O'rta asrlar tasviriy sanati.
4. Uyg'onish davri tasviriy sanati.
5. Keyingi davr tasviriy sanati.

Tasviriy sanatning ilk taraqqiyot bosqichlari ibtidoiy davr nomi bilan shakllanib borgan bo'lib, Ibtidoiy jamoa tuzumi tasviriy sanati tarixi odamzod tafakkuri, xis-tuyg'ularining paydo bo'lishi va rivojlanishidan boshlab er yuzida birinchi shahar davlatlarning yuzaga kelishigacha bo'lgan davr o'z ichiga oladi, o'rganadi va tahlil qiladi. Ibtidoiy jamoa tasviriy san'ati davri 3 asosiy bosqichga bo'linadi: 1. Tosh asri bo'lib, eramizdan avvalgi 3 ming yillikgacha. 2. Mis va bronza asri-eramizdan avvalgi 3 ming yillikdan 2 ming yillikgacha. 3. Temir asri eramizdan avvalgi 1 ming yillikgacha bo'lgan davrlarni o'z ichiga oladi. Shundan tosh asri ham o'z navbatida uch bosqichga bo'linadi, qadimgi tosh asri eramizdan avvalgi 10 ming yillikgacha bo'lgan davr, o'rta tosh asri-eramizdan avvalgi 10-6 ming yillikgacha bo'lgan davr, yangi tosh asri-eramizdan avvalgi 6-3 ming yilliklarni o'z ichiga oladi.

Poleolit eng qadimgi tosh asri bo'lib, insoniyat taraqqiyotining eng uzoq davom etgan bosqichi hisoblanadi. U ham uch davrga bo'linadi. 1. Eng qadimgi yoki quyi poleolit-eramizdan avvalgi 150 ming yilliklar. 2. O'rta poleolit-150-35 ming yilliklar. 3. So'nggi poleolit-35-10 ming yilliklarni o'z ichiga oladi.

Poleolit tasviriy sanatining eng gullagan davri madlen (Poleolit davri miloddan avvalgi 20-10 ming yilliklar) ga to'g'ri keladi. Bu davrda ishlangan hayvonlar tasviri aniq shakli real, proporsiyali (xajmlar mutannosibligida) ishlangan. Ularning o'ziga hos harakterli tomonlari tushunarli ifodalangan. Bu tasvirlar turli holatda va ko'rinishda tasvirlanadi. Ushbu tasvirlar asosida tasvirlovchi (rassom) ranglar yordamida, nur-soya imkoniyatlaridan ham foydalana boshlagan.

Dastlabki malumotlarga (arxeologlarning ilmiy izlanishlari natijasiga) ko‘ra paleolit davrida, ayniqsa uning so‘nggi bosqichlarida tasviriy sanatning barcha turlari paydo bo‘ldi, ularda dastlabki diniy tushunchalar shakllana boshladi. Yevropa, O‘rta Osiyo va Afrika xududlarida topilgan er to‘la devorlariga o‘sha davrda chizilgan turli rasmlar, bo‘rtma tasvirlar, turli haykallar, hayvonlarning rasmlari ibtidoiy jamoa davri odamlarining estetik dunyo qarashlarini kengayishiga olib kelgan. SHuningdek o‘sha davrda haykaltaroshlik sanati bir muncha rivojlangan. G‘arbiy Evropa va Avstraliyadan topilgan “Villendorf Venerasi” ayol haykali bunga misol bo‘la oladi.<sup>4</sup>

Poleolit davriga oid bunday haykallar SHarqiy Yevropa, Sibir, O‘rta Osiyodan ham ko‘plab topilgan. Bu davrga kelib, amaliy dekorativ tasviriy sanat, yani buyumlarga naqsh solish, bezash ishlari ham yaxshi rivojlangan.

O‘rta tosh asri mezolit davrida odamlar hayotida muhim o‘zgarishlar yuz bera bera boshladi. Ov uchun o‘q, kamon va boshqa mehnat qurollarini yangi usullarini yasash yo‘llariga asos soldilar.

Sharqiy Ispaniya, Kavkaz va O‘rta Osiyodan topilgan (O‘rta Osiyodan Surxondaryo-Zarautsoy) Farg‘ona (Seymali-tosh), Ozarbayjon (Kobiston) kabi joylardan ovchilikni tasvirlovchi suratlar topilgan.

Neolit yoki yangi tosh asrida odamlarda faqat tabiat inom etgan narsalarga qoniqmay, o‘zlaridagi yaratuvchilik faoliyatlari bilan tasviriy sanatga asos sola boshlaydilar. CHorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanish bilan birga terini qayta ishlash texnologiyalariga to‘qimachilik, kulolchilikda, naqsh solish san‘atiga e‘tiborni qaratdilar.

Bronza asrida yani eramizdan avvalgi 3-ming yillik o‘rtalarida odamlar mis va qalayni, qo‘rg‘oshin hamda ruhni surma bilan eritib bronza tayyorlashni kashf qilgan. Bu davrda bronzadan qurollar, zebu-ziynatlar yasay boshlaganlar.

Bronza asri O‘rta Osiyo, Eron, Messopatamiya, Kavkazda eramizdan avvalgi 3-ming yillardan boshlangan bo‘lsa, Suriya, Kichik Osiyo, Falastin,

---

<sup>4</sup> A.Egamberdiyeva,S.Saidova,R.Rajabov “Tasviriy va me‘morchilik san‘ati tarixi” “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2007 y. 4-5 betlar.

Kipr va Kritada 3-2 ming yillik chegarasida, Misr, Xitoy, Hindiston, Evropada esa eramizdan avvalgi eramizdan avvalgi 2-ming yillikka kelib sodir bo'ldi.

Bu davrga kelib amaliy-dekorativ Tasviriy sanat, kulolchilik, haykaltaroshlik yanada rivojlandi. Ayniqsa xaykaltaroshlikda erkaklar xaykaliga alohida e'tibor berila boshladi.

Temir asri er.av.1-ming yillikka to'g'ri kelib, bu davrlardagi rasmlarda bayramlarda, qo'shiq aytish, musiqa asboblari chalish kabilar aks ettirilgan. Oltin, kumush, bronzadan yasalgan zebu-ziynatlarning mavjudligi ham ayni shu davrga to'g'ri keladi. Kaspiy dengizi yoqalari, Sibir, Oltoyda skif qabilalari yashagan bo'lib, ularning o'ziga xos madaniyati va tasviriy sanati bo'lgan.

Jumladan, Skiflar o'z boshliqlari vafotidan so'ng, katta tuproq qo'rg'on-qabrlar qurganlar. Skiflar madaniyati va tasviriy sanati o'z rasmlar, uy-anjom buyumlari, oltin, kumush, bronza, suyaklardan yasalgan zebu-ziynatlardan iborat 40 mingdan ortiq asarlar bugungi kunda Ermitajda saqlanib kelmoqda.<sup>5</sup>

Xulosa qilib aytganda ibtidoiy jamoa davrida inson mehnati bilan bir qatorda tasviriy sanat yuzaga keldi. Dunyodagi barcha mamlakatlarda tasviriy sanat deyarli bir davrda paydo bo'ldi. Bir-biridan 500-1000 yil farq qilsa ham tasviriy sanatning ko'rinishi bir xil bo'lgan.

Eramizdan avvalgi 5-3 ming yilliklarga kelib, ibtidoiy tuzum asta-sekin emirila boshladi. Bu davrga kelib odamlar ko'proq tabiiy kuchlarga emas balki ilohiyotga sig'ina boshladilar. Qullarni ekspluatatsiya qilish aqliy mehnatni jismoniy mehnatdan ajratib yubordi. Natijada inson ma'naviy dunyosi o'sdi, bu esa tasviriy sanatning yanada rivojlanishiga zamin yaratdi. Ilohiyot bilan bog'liq tasavvurlarning yanada takomillashib borishi odamlar ongida diniy tasavvurlarda estetik g'oyalarning paydo bo'lishiga sabab bo'la boshladi.

Jahon tasviriy san'atining rivojlanishida Misr tasviriy sanatining alohida o'rni bor. Misr tasviriy sanatida o'ziga xoslik, estetik tushunchalarga boy go'zallik, ulug'vorlik kabi izohlarga ega rasmlar, memorchilik, haykaltaroshlik

---

<sup>5</sup> A.Pugachenkova. "Vseobshaya isskustvo" Moskva "Isskustvo" nashriyoti.

alohida etiborga sazovordir. Memorchilik namunalari bo'lgan Misr exromlari o'zining qadimiyligi va ulug'vorligi bilan o'ziga hos xususiyatga ega.

Qadimgi Misr tasviriy sanata toshlarni o'yib, plita shakliga keltirish, ularga gullar solish keng rivojlangan. Ayniqsa, Firavnlr xukmronligi davrida tasviriy sanat, haykaltaroshlik, memorchilik, o'ymakorlik sanat turlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Qadimgi Sharq xalqlari tasviriy sanati eramizdan avvalgi 5000-4000 yillardayoq yuzaga kela boshlagan. O'rta Osiyo, Hindiston, Xitoy, Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlaridagi ijtimoiy taraqqiyot va ulardagi podsholiklar jahon madaniyati va tasviriy sanating rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Dajla va Firotdaryolari voxasida O'rta er dengizi xavzasining sharqiy qismi sohillari hamda kichik Osiyoning markaziy tog'li xududlarida eramizdan avvalgi 5000-4000 yillardan 539 yilgacha SHumer Akkad, Ossuriya, Bobil kabi qator davlatlar mavjud bo'lib, ular jahon tasviriy sanatinirivojlanishiga o'z xissalarini qo'shdilar.

Qadimda grek tasviriy sanating eng asosiy turlari bo'lgan, grafika, haykaltaroshlik, memorchilik sohalarini mukammal egallaganlar. SHu asosda greklar jahonda birinchi bor badiiy ijodda insoniyatning asriy muammolarini ochishga urindilar. Ular botirlik, jasorat, vatan mehri va hur insonning qudratini ulug'ladilar, uning jismoniy go'zalligi va manaviy barkamolligini ifodalab, ideal garmonik kamol topgan inson obrazini yaratishga intildilar. "Qadimgi Gretsiya tasviriy sanati asosan 4 bosqichga bo'linadi 1-Gomer davri (er.av. 11-8 asrlar), 2-Arxaika davri (er.av. 7-6 asrlar), 3-Klassika davri (er.av. 5-4 asrlar), 4-Ellinizm davri (4-1 asrlar).<sup>6</sup>

Gomer davrida xunarmandchilik, ayniqsa kulolchilik va u bilan bog'liq vazaga gul solish tasviriy san'ati ayniqsa eng yuqori pog'onaga ko'tarildi. Ko'zalardagi tasvirlar geometrik shakllar va chizmalar orqali hayotiy voqealarni sxematik tal'qin etishga harakat qilganlar.

---

<sup>6</sup> A.Egamberdiyeva,S.Saidova, R.Rajabova "Tasviriy va me'morchilik san'ati tarixi" "O'qituvchi" nashriyot-marbaa ijodiy uyi Toshkent-2007 y.

Arxaika davrida ilmiy fikrlar rivojlandi, Greklar o'zlaridan avvalgi ayniqsa, sharq mamlakatlari bo'lgan Babil, Misrning fan va madaniyat borasidagi yutuqlarini chuqur o'rganib, o'zlarining takrorlanmas tasviriy sanat madaniyatlarini yaratishga erishdilar. Meditsina, astronomiya, tarix, geografiya, matematika taraqqiy etdi. Poeziya, adabiyot, teatr kamol topdi, grek yozuvi paydo bo'ldi.

Bu davrdagi me'morchilik tasviriy san'ati e'tiborga loyiqdir. Me'morchilik tasviriy sanati ko'proq shaharlarda qurilgan ibodatxonalarda o'z aksini topgan.

Klassika davrida Gretsiya o'zining, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining eng yuksak bosqichiga ko'tarildi. Bu taraqqiyot Eron-Grek urushlaridan keyin Afina davlatining kuchayishiga olib keldi. Urush natijasida Greklar yirik Afina davlati atrofiga birlashdilar. Afina urushdan keyin 150 dan ortiq shahar-davlatlarni boshqardi. Afina eramizdan avvalgi 5-asr o'rtalariga kelib, butun grek olamining eng yirik madaniy iqtisodiy markaziga aylandi.

Ayni shu davrda haykaltaroshlik, tasviriy sanat, memorchilik va boshqa sanat turlari rivojlandi.

Ellinizm davri tasviriy san'ati eramizdan avvalgi 336-yilga Makedoniya podshosi Aleksandr Ellin davlatlarini bosib olgan davrga to'g'ri keladi.

Ellinizm davrida tasviriy sanatning portret janri katta yutuqlarga erishgan. Shuningdek, bu davr memorchiligi o'zining xashamatliliigi, dabdabaligi va katta xajmga intilishi bilan ajralib turgan.

Yuliy Sezar tomonidan Romanum forumida eramizdan avvalgi 1-asr o'rtalarida sud-idora binosi qurilgan. Rim tasviriy sanati etrusk va yunon sanati tasirida rivojlangan bo'lib, keyinchalik o'zining harakterli xususiyatiga ega bo'la bordi. Portret janri Rim tasviriy sanati asosiy o'rinni egallab, ayniqsa haykaltaroshlikda bu yo'nalish o'zining cho'qqisiga erishdi shuningdek, devoriy suratlar ishlash keng rivojlandi.

Birinchi o'n yillik Respublika davrining qadimiy asarlaridan biri mashhur bronzadan ishlangan "Kapitoliy bo'risi" haykali ko'p asrlar davomida Rim

ramzi bo‘lib keldi. Ajoyib texnika asosida bronzadan o‘yilishi va hayvonning tasvirlanish harakteri etruss (elat) ustalarining ishi ekanidan dalolat beradi.

1-asr o‘rtalarida paydo bo‘la boshlagan yangi uslub ellinizm sanati bilan bog‘liq bo‘lib, pergam (Pergam xukmdor shaxsning nomi. Pergam xukmronlik qilgan davr san’ati shu nom bilan atalgan) san’atiga ham qisman aloqador bo‘lgan “Neron-bola”, ayniqsa “Neron-imperator” nomli portretlar yangi uslubda ishlangan asarlarga misol bo‘la oladi. Qattiqqo‘l, shishgan yuzli Neronning peshonasi yassi ekani va og‘ir qarashi Avgus davridagi ideallashtirish davridan portret sanatining qanchalar ilgari ketganligidan dalolat beradi.

2-asr Rim imperiyasining davrining “Oltin asri” deb ham yuritiladi. Bu davr quldorlikning chiqishi, Italiyaning esa o‘z ustunlik holatini qo‘ldan bera boshlagan va uzoqdagi kichik shaharlarning rivojlangan davri edi. Eski sanat markazlari Vifini, Pergama, Siriya tiklandi.

Yirik Rim qurilishlaridan Panteon (xudolar ibodatxonasi) Appolodor Domask nomi bilan bog‘langan bo‘lib, eramizning 125 yiliga to‘g‘ri keladi. Baxaybat silindr shaklidagi bu binoning usti gumbaz bilan yopilgan. Panteon boshqa Rim qurilishlari kabi pishiq g‘isht va betondan qurilgan. Binoning ichkarisi marmar bilan bezatilgan. Panteonning gumbazi o‘zining kattaligi jihatidan qadimiy memorlik obidalari ichida eng yirigidir.

Adrian davrida portret sanati harakteri yana o‘zgarib, klassitsizm paydo bo‘la boshlaydi. Soqolli ishlangan Adrian portretini eramizdan avvalgi 4-asrdagi yunon faylasuf va dramaturglarining psixologik portretlariga o‘xshatishga harakat qilingan. Adrian davri sanatining markaziy obrazi Antinaning ko‘pgina portret va relefda (rel’ef-fransuzcha yuza degan ma’noni bildiradi, releflarni faqat bir tomondan ko‘rish mumkin) ishlangan haykallarni uchratish mumkin.

Bundan tashqari, bu haykaltaroshlik asarlarida dumaloq haykaltaroshlikdan shu bilan farq qiladiki, unda kenglik, tabiat manzaralarining ko‘rinishlari ham aks etadi, hayotda sodir bo‘ladigan voqealar malum muhitda ko‘rsatiladi.

Shuning uchun bunday releflar bazan sanat tarixida perspektivali (perspektiva fransuzcha qisqarib ko‘rinish) relief ham deb yuritiladi aks ettirilgan obrazlari er.av. 5-asr klassik yunon asarlari uslubida bajarilgan.

Qadimiy yunon sanatining qaytarilishiga qaramay Rim tasviriy san‘ati boshqacha harakterga ega, osoyishta, aniq, vazmindor yunon klassikasi obrazlari o‘tmishni romantik eslash bilan almashgan. Jumladan “Antinoya” portretida g‘amgin va o‘yga tolgan holat yosh o‘spirin yuzida o‘z aksini topgan.

Og‘ir kunlarni boshidan kechirgan Rim imperiyasida 3-asrga kelib quldorlik tuzumining inqirozi vujudga keladi natijada eramizning 192 yili imperator Komoda o‘ldirilishi, fuqarolar urushining boshlanishiga sabab bo‘ldi. Bu kurash asosan Rim armiya boshliqlari o‘rtasida davom etib, Septimisever xukumat tepasiga keladi. Severlar sulolasi xokimiyatni qirq yildan ortiq boshqaradi.

2-asr sanati Rimning iqtisodiy va siyosiy tarixi xaqida yaqqol xikoya qiladi. 2-asr oxirlariga kelib Rim arxitekturasida dekorativlikning kuchayishi seziladi. Ilgari keng miqyosdagi qurilishlar o‘rnini har-xil bezaklar egallaydi. Tashqi tomoni turli-tuman haykallar, rangtasvir va mazaikalar bilan bezatilgan 3-asr yodgorliklari unchalik yaxshi saqlanmagan bo‘lsa-da, bu davr rassomlarining nihoyatda yuksak mahoratga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Avreliy imperatorligi davrida, yani 3-asrda Rim shahari bahaybat mudofaa devori bilan o‘ralgan bo‘lib, u Avreliana devori deb ataladi. Avrelian devori bizgacha qisman saqlangan birdan-bir qadimiy Rim harbiy mudofaa qurilmasidir.

Spalatodagi yirik saroy Diokletina davriga taalluqlidir. Bu qurilish qala shaklida G‘arbda joylashgan bo‘lib, SHarqiy Rim imperiyasi paydo bo‘la boshlagan davrda bunyod etilgan. YOdgorlik antik ananalardan tamoman xoli bo‘lgani va Vizantiya arxitekturasining ilk shakllari namoyon bo‘layotganini ko‘rsatadi.

Xristian dini bilan bog‘liq yodgorliklarda yangilik aniq ko‘zga tashlanadi. Birinchi xristian qurilishlari, erosti galireyalari va go‘rkovlar tomonidan quriladigan shahar tashqarisidagi xonalar bir necha km.ga.cha davom etgan. Er



osti galireyalarida xristianlar o'z yaqinlarini dafn etib diniy urf-odatga ko'ra bu erda ibodat qilishgan. Er osti yo'llarining eni 1 m, balandligi esa 3-4 m.gacha bo'lgan.

Eramizdan avvalgi IV asrga kelib, qadimgi YUnonistonda Sikkion, Efes, Fiva kabi o'sha davrdagi mashhur rassomlar maktablari qaror topdi. SHulardan eng ko'zga ko'ringani Sikkion maktabi bo'lib, u nafaqat rasm chizish metodlarini takomillashtirishga, balki, umuman tasviriy san'atning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Bu maktab tasviriy san'at qonuniyatlarini ilmiy jihatdan o'rganishga e'tibor qaratadi.

Qadimgi YUnoniston mo'yqalam ustalari o'z o'quvchilariga tabiatni ko'proq kuzatib idroklashni, uning beqiyos va takrorlanmas go'zalligidan lazzatlanishni o'rgatar edilar. YUnon rassomlari narsa va buyumlarni o'ziga qarab haqqoniy tasvirlashga asos solganlar.

O'rta asrlarga kelib, realistik tasviriy san'at inqirozga uchradi. CHunki bu davr rassomi na buyumni tekislikda haqqoniy tasvirlash qoidalarini, na tasvirlashda yunon rassomlari tomonidan ishlab chiqilgan asosiy prinsiplarni to'liq bilmas edi. Ruhoniylar o'qitishning yunon rassom-pedagoglari tomonidan ishlab chiqilgan nazariy asoslarni yo'q qildilar.

Ushbu davrda tasviriy san'atga oid barcha nazariy ma'lumotlar yo'qqa chiqarildi. Keyinchalik bu jarayonni qayta tiklash uyg'onish dari ijodkorlari zimmasiga tushdi.

Rennesans ijodkorlari tasviriy san'atning rivojlanishida yangi sahifa ochdilar. Deyarli ming yillardan so'ng, ilmiy bilim va san'atni rivojlantirish muammolariga yana qiziqish paydo bo'ldi.

Leonardo da Vinchi, Dyurer, Alberti, CHennini kabi buyuk san'atkorlar tasviriy san'at, xususan, qalamtasvir chizishning yangi metodlari bilan shug'ullana boshlaganlar. Ular tasviriy san'at sohasidagi qonunlar tabiat qonunlaridan kelib chiqadi deb hisobladilar.

Uyg'onish davri rassomlik maktablari o'ziga hos tashkil etilgan: 4-6 o'quvchidan iborat o'quvchilar guruhi tashkil etilib, o'quvchilar usta rassom

ustaxonalarida taxsil olganlar. Qalamtasvir bilimlari kompozitsiya asoslari bilan olib borilgan. Ustozlar o'quvchilarga boshlang'ich rasmda eskiz, nabroska va xomaki chizmalar chizishdan tortib ularni katta asarlargacha bo'lgan davrgacha olib chiqqanlar.

Qalamtasvir me'morchilik, haykaltaroshlik, rangtasvirning haqiqiy asosi hisoblangan.

Florensiyalik me'mor Leon Battista Alberti ham qalamtasvir va uni o'qitish metodikasiga katta e'tibor bergan. "Rangtasvir haqida uch kitob" asarida ranglar bilan ishlashni o'rganish zarur ekanligini ta'kidlaydi. Albertining 500 yil avval qalamtasvir haqida yozgan kitobidagi qonun-qoidalar hozirgi kungacha akademik qalamtasvir asoslariga hizmat qilib kelmoqda.

Rasm chizish metodlarini takomillashtirishga buyuk Leonardo da Vinchi ham o'z hissasini qo'shdi. Uning "Rangtasvir haqidagi kitobi" da olamning tuzilishi, tabiatdagi o'zgarishlar, chiziqli va fazo perspektivasi haqida ko'plab ilmiy asoslangan fikrlar mavjud.

Leonardo da Vinchi ham tasviriy san'atning asosi qalamtasvir deb hisoblab, narsaning o'ziga qarab tasvirlash o'qitishning zarur sharti ekanligini ta'kidlagan edi. Leonardo da Vinchi inson a'zolari tuzilishi vrach-anatom kabi jiddiy o'rgangan. U insonning har bir muskul va to'qimasini o'rganib, ularning tasvirini chizib qoldirgan.

Uyg'onish davrining usta rassomlari orasida nemis rassomlari Albrext Dyurer va SHon qalamtasvir metodlarini takomillashtirish muammolari bilan shug'ullangan. Ular tasvirlashda perspektivaning asosiy qonun-qoidalari ustida ko'plab sinovlar o'tkazganlar. Ularning diqqatiga sazovor ishlaridan biri-inson qomatining nisbatlarini ishlab chiqqanligi va uni kesib shakillar orqali aks ettirish metodini yaratganligidir.

Uyg'onish davri rassomlari Leonardo da Vinchi, Mikel-Anjelo-Buanorotti, Rafael' Santi jahon tasviriy san'atining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Ular kashf etgan tasviriy san'atning perspektiva qonunlari keyinchalik ijodkor rassomlar uchun misli ko'rinmagan darajada yordam berdi. Agar o'rta asrlar

boshida tasvirlash metodik buyumlar shakli-shamoyilining o'xshashligiga asoslangan bo'lsa, keyingi davrda tasviriy san'at ilmiy asoslandi, anatomiya qonunlari chuqur o'rganildi, perspektiva qoidalariga to'la-to'kis rioya etgan holda tasvirlash metodi rivojlandi. Yuqorida ta'kidlanganidek, Uyg'onish davri rassomlari Leonardo da Vinchi, Mikel-Anjelo-Buanorotti, Rafael' Santi rasm chizish metodikasini ishlab chiqdilar va qalamtasvirning fan sifatida rivojlanishiga katta e'tibor qaratdilar. SHunday bo'lsada ular o'qitishning didaktik negizlariga kam etibor bergan. XVI asrning oxiriga kelib, qator davlatlarda tashkil etilgan Badiiy akademiyalar bu vazifalarni ijobiy xal eta boshladilar.

XVI asr qalamtasvirning fan sifatida to'la-to'kis qaror topishi uchun zamin yaratdi. Akademik qalamtasvirni o'qitish tizimi dastlab Florensiyadagi "Qalamtasvir akademiyasida" ishlab chiqildi. Aka-uka Korrachilar tomonidan Boloniyada tashkil etilgan akademiyada musavvirlarga quyidagi usulda saboq berganlar. YOshlar dastlab qalamtasvir chizish metodlari, qonun-qoidalar bilan tanishganlar, so'ngra gips namunalarini tasvirlaganlar, shundan keyin inson qiyofasini o'ziga qarab chizganlar. Bu mashg'ulotlarda ular insonning anatomik tuzilishini ham o'rganish imkoniyatiga ega bo'lganlar.

Boloniya akademiyasi o'z davrida yoshlarga badiiy ta'lim berish borasida eng maqbul va namunali oliy o'quv dargohi hisoblanganligi tufayli uning metodikasini davom ettirib, 1646 yilda Parij qalamtasvir va haykaltaroshlik qirollik akademiyasi, 1660 yilda Rimda badiiy akademiya, 1696 yilda Berlinda, 1753 yilda Madridda, 1757 yilda Peterburgda, 1768 yilda Londonda badiiy akademiya tashkil etilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, davlat tomonidan tashkil etilgan akademiyalar bilan bir qatorda xususiy san'at maktablari ham mavjud bo'lgan. O'quv adabiyotlari ustaxonalar bilan to'liq ta'minlangan maktablardan biri taniqli Flamand respublikasi rassomi Piter Paul' Rubensning xususiy flamand san'ati maktabidir. Rubens o'z zamonasining yirik namoyondasi edi. U buyuk rangtasvir, qalamtasvir ustasi bo'libgina qolmay, balki san'at asarlarini yuksak

qadrlay biladigan olim-tatqiqotchi, davlat va jamoat arbobi hamda mehribon ustoz bo'lgan. "Rubens yuqori darajada ma'lumotli bo'lib, ingliz, ispan, fransuz, italyan, nemis tillarini mukammal bilgan. Rassom o'z shogirdlarini to'g'ridan-to'g'ri nusxa ko'chirishga emas, balki inson a'zolarini tasvirlashga ilmiy-ijodiy yondashuvga da'vat etadi."<sup>7</sup>

XVI asrning 2-yarmida Fransiya badiiy maktablar rivojlangan markaziga aylangan. Fransuz akademiyasi badiiy ta'lim-tarbiya tizimiga ko'plab yangiliklar olib kirdi. Ayniqsa, u erda akademik qalamtasvir borasida talaygina metodik yangiliklar yaratildi.

Qalamtasvir va uni o'qitish metodlarini rivojlantirishga mashhur fransuz rangtasvir ustasi Lui David katta hissa qo'shdi. Tasvirlashda, deb ta'kidlangan, har bir bo'lak mukammal aniq ishlanishi, shu bilan bir qatorda bo'laklar yaxlit bir butunligini tashkil etishi lozim. Lui David asosiy e'tiborni inson qomatining ichki tuzilishi skiletini chuqur bilishga qaratgan, chunki tashqi qiyofani chizishda bu muhim omil bo'lgan. Qalamtasvir o'qitish metodini rivojlantirishga yana bir tatqiqotchi rassom aka-uka Aleksandr va Fernand Dyupyular ham katta hissa qo'shdilar. 1835 yili ular Parijda yosh rassom va hunarmandlar uchun bepul maktab ochib, shogirdlarga tasviriy san'atdan saboq berdilar. Bu erda, boshqa san'at dargohlaridan farqli o'laroq, inson qomatini tasvirlash mukammal o'rgatilgandan keyingina gips naqsh namunalari chizishga o'tilgan. Aka-uka Dyupyularning ta'kidlashicha, o'simliklardan tashkil etilgan naqsh bo'laklari tabiatning eng murakkab shakllarini o'zida mujassamlashtiradi.<sup>8</sup>

XIX asrning 2-yarmidan boshlab xususiy akademiyalar ko'payib bordi. Jumladan, akademiyalar ko'p yillar davomida sinovlardan o'tgan ta'lim berish tajribasini inkor etish asosida qurilgan edi. O'qituvchi, xususiy maktabini targ'ib etish maqsadida, o'tmishda tashkil etilgan va mavjud akademiyalarni

---

<sup>7</sup>N.Gritsay. "Flamandskaya jivopis XVII veka" ocherk-putevoditel. Sankt-Peterburg 1990 y. 3-4-5- b.

<sup>8</sup>O.Mo'yinov. "Rangtasvir" Toshkent "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxriyati 2007 yil. 16-bet.

“eskirib, qotib qolgan” deb hisoblab ko‘p hollarda yoshlarga hech qanday tizimga ega bo‘lmagan usulda ta’lim olib borishgan.

Xususiyl akademiyalarda 40-50 ga yaqin o‘quvchilar jalb etilib, umumiy tarzda saboq berishgan.

XIX asrning oxiriga kelib, akademik tarzda o‘qitish prinsiplari zamon talablariga javob bermay qo‘ydi. Bu davrga kelib **kubizm, ekspressionizm, neoimpressionizm, dadizm, syurrializm kabi** oqimlarning o‘zaro ziddiyatlari qalamtasvirning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu oqim vakillaridan Klod Mone, Alfred Sisley, Edgar Dega, Pol Sezann, Pol Gogen, Pablo Pikasso, Salvador Dali akademik tasvirlash qoidalariga qarshi chiqib, uni yoshlarni tarbiyalashda unchalik samara bermaydi degan xulosalarga kelishgan.

XX asrning boshlariga kelib, G‘arbiy Evropa va Amerika davlatlarining bir qator badiiy maktablari inqirozga uchradi. Realistik tasviriy san’atdan farqli ravishda naturani noizchil o‘rganish, qalamtasvir qonun-qoidalarini mensimaslik natijasida akademik qalamtasvirni qoralama bilan almashtirildi.

## **1.2. Tasviriy sanat vujudga kelishining ilmiy-nazariy asoslari**

Tasviriy sanat qadimdan rivojlanib kelgan san’at turlaridan biri bo‘lib, u insoniyat uchun manaviy-estetik talim tarbiya berish bilan birga marifiy bilim berish jarayonlarini ham o‘z ichiga oladi. Tarixsiz kelajak bo‘lmaganidek, tasviriy sanatni qalamtasvir asoslarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Qalamtasvir-barcha barcha tasviriy sanat turlarining asosi hisoblanadi. Musavvir qaysi tasviriy san’at turi bilan ijod qilmasin u dastlab qalamtasvir asoslariga asoslanib ish ko‘radi. Qalamtasvir mustaqil ravishda tugallangan sanat asari ham bo‘lishi mumkin. Sangina, tush, sous, pastel, qalamda yaratilgan ko‘plab kartinalar jahonning turli sanat muzeyi va ko‘rgazmalaridan joy olgan. Tasviriy sanat qoidalari va asoslari quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

1. Tasviriy sanatta kompozitsiya asoslari.
2. SHakllarning chiziqli konstruktiv tuzilishi.
3. Buyumlarning o‘zaro nisbatlari.

4. Tasviriy sanatta perspektiva qonunlari.
5. SHakllarda yorug‘ va soya qonuniyatlari.
6. Tasvirni metodik ketma-ketlikda analiz va sintez qilib to‘g‘ri tasvirlash.<sup>9</sup>

Rassom o‘zi chizmoqchi bo‘lgan natyurmort yoki qo‘yilmani xuddi badiiy asardek diqqat bilan o‘qib so‘ngra uning mazmunini to‘liq tushunib etib uni tasvirga tushurmog‘i kerak, chizish davomida ham u fikrlashdan to‘xtamasligi lozim, agar u fikrlashdan to‘xtasa tasvirdagi xajm va nisbatlar, ularning o‘zaro munosabatlari ham o‘z mazmunini butkul yo‘qotadi. SHu bois rassom e‘tiborsizlik bilan chizilgan rasm odatda tomoshabin tomonidan yuqori baholanmaydi. Tomoshabin esa tasviriy sanatta haqida ilmiy darajaga ega bo‘lmasa-da, uquvsizlik bilan chizilgan rasmni oddiygina so‘zlar bilan o‘xshamagan deb baholaydi.

Tasvirlanayotgan buyum shakli qanchalik murakkab bo‘lsa, chizuvchi uni shunchalik ko‘p o‘rganishi va tahlil etishi kerak. Qalamtasvirda ilmiy yondashish, ayniqsa buyumning chiziqli konstruktiv (konstruksiya so‘zining ma‘nosi-qurilish, ya‘ni chizilayotgan narsa, jism yoki boshqa narsalarning qurilishi) tuzilishi va perspektiv holatini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi. Qalamtasvirda etuk malakaga erishish uchun dastlab narsaning o‘ziga qarab chizishni hamisha asosiy mashg‘ulot qilib belgilamoq lozim. Narsani o‘ziga qarab tasvirlash mahorat maktabini o‘tmasdan badiiy rivojlanish bosqichlaridan yuqoriga chiqish mumkin emas. Malakali rus rassomi P.P.Chistyakov aytganidek, *talaba, avvalo, chizilayotgan buyumni sinchiklab kuzatishi zarur, so‘ngra u naturani o‘ziga “bo‘ysundirishi” kerak. Rassom qanday etuklikka erishmasin, u narsani o‘ziga qarab tasvirlashdan voz kechmasligi lozim.*<sup>10</sup>

Qalamtasvirni ilmiy jihatdan tahlil etish natijasida uning bir necha mustaqil asosiy fanlar bilan chambarchas bog‘lanib ketishini kuzatish mumkin:

- I. Perspektiva**-buyumning fazoviy holatini tekislikda to‘g‘ri tasvirlash metodlarini ochib beruvchi fan.
- II. Plastik anatomiya**-inson va hayvonlar tanasining tuzilishi haqidagi fan.

---

<sup>9</sup> N.N.Rostovsev. «Akademicheskij risunok», Moskva. «Просвещение», 1984 y.

<sup>10</sup> B.Boymetov. “Qalamtasvir”, “Musiqqa” nashriyoti Toshkent 2007 yil. 11-bet.

### III. Fizika-buyumlarda yorug‘ va soyalarning taqsimlanishi borasidagi fan.

Ushbu fanlarni har bir talaba umumta’lim maktabida, so‘ngra badiiy o‘quv yurtida chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishi hamda ularni tasviriy faoliyatlarida keng qo‘llay olishlari zarur.

O‘tmishda yashab ijod etgan buyuk rassomlar ham, hozirgi zamonaviy rassomlar ham perspektivani birinchi o‘ringa qo‘yadilar. Tasviriy san’at fazoviy tasavvurimiz perspektiva qonuniga to‘la amal qilishni talab etadi.

Perspektiva qonunlarini bilmay turib, buyumning fazoviy xolatini aniqlab bo‘lmaydi. Odam plastik anatomiyasini ilmiy jihatdan o‘rganmay turib inson qomati va portretini chizib bo‘lmaydi.

Buyumlarni tasvirlash sanati, boshqa aniq fanlar kabi, fikrlab chizilayotgan narsani chuqur taxlil etib, uni so‘z orqali emas, turli tasvirlash vositalari bilan, obrazli qilib yaratishni talab etadi. Fikrlab tasvirlashda rassom shakllarning o‘zaro munosabatlariga ham alohida ahamiyat berishi kerak aks holda jismlarning bir-biridan farqini ajratib bo‘lmay qoladi.

Tasviriy sanat atrof-muhitni keng va atroflicha o‘rganish natijasida, aniq fanlar kabi, tabiatni ilmiy jihatdan

Perspektiva fransuzcha so‘z bo‘lib, “La perspective-uzoqqa qarash, yunonchasiga esa-perspistor oyna orqali to‘g‘ri va aniq ko‘rayapman” degan manoni bildiradi. <sup>11</sup>

Perspektiva-bu tasviriy sanat grammatikasidir. SHuning uchun ham har bir yaratiladigan tasviriy sanat asarining avvalo perspektiva qonun-qoidalariga amal qilingan holda eskizi ishlab chiqiladi. SHu bois perspektiva qoidalariga rioya qilinmay ishlangan kartina oldida turgan kuzatuvchi: “Bu kartinada perspektiva yo‘q”- deydi. Demak, perspektiva qoidasiga amal qilinmay yaratilgan bunday asarning hech qanday qiymati bo‘lmaydi.

---

<sup>11</sup> Qarang: I.Raxmonov. “Perspektiva” “O‘qituvchi” nashriyoti Toshkent.1993 y. 6-bet .

Perspektiva fani chizma geometriya predmetidagi markaziy proektsiyalash mavzusiga asoslanganligi tufayli u realistik rasm yaratilishida ilmiy baza bo‘lib, narsalarni ko‘z o‘ngimizda qanday ko‘rsak, shunday tasvirlashga yordam beradi.

Perspektivaga oid boshlang‘ich malumotlarni Anaksagor (eramizdan 500 yil oldin), Demokrit (eramizdan 460-370 yil oldin) va Esxil (eramizdan 525-456 yil oldin) larning asarlarida uchratamiz. Ular dekoratsiyalar (dekoratsiya-sahna yoki ma‘lum bir maqsadga yo‘naltirilgan joyni mavzuga muvofiq badiiy bezash) uchun rasmlar chizishda perspektiva qoidalari bilan shug‘ullanganlar. Eramizdan 400 yil oldin yashagan Eliodor Larneskiy narsalarni ko‘rish qonunlarini ochganlardan bo‘lib, kuzatish perspektivasi bo‘yicha birinchi ma‘lumotlarni qoldirgan. Evklid (eramizdan oldingi III asr) o‘zining “Optika” (perspektiva) kitobida 12 ta aksioma va 61 teoremani bayon qilib, kuzatish perspektivasini, ya‘ni kishi narsaninig hajmi va shaklini ko‘rishi qonunini hamda tekis va egri ko‘zgulardan qaytuvchi nurlar nazariyasini yaratdi. Rimliklar perspektiva qoidalarini yaratishda me‘morchilik namunalarini barpo etishda asos soldilar. Ana shunday memordan Marka Vitruviy (eramizdan oldingi I asr) tekislikda binolarning tasvirlarini yasash usullarini ishlab chiqdi.

Eramizdan oldin II asrda yashagan mashhur astronom Ptolomey ham perspektiva bilan shug‘ullanib, narsalarni ko‘rishda uning hajmi, shakli, rangi va soyasi bilan bog‘liq masalalarni ishlab chiqqan.

Evklid va Ptolomey asarlarida kuzatish perspektivasiga oid juda ko‘p masalalar yoritilgan. SHunga qaramasdan o‘sha davr rassomlari tomonidan yaratilgan asarlarda perspektiva qoidalari to‘la tadbqiq qilinmagan. Asosan perspektiva qoidalari teatr dekoratsiyalarida qo‘llanib kelingan bo‘lib, Uyg‘onish davriga kelganda perspektiva fanida juda katta o‘zgarish yuz beradi.

Uyg‘onish davrinig buyuk siymosi italiyalik buyuk rassom va olim Leonardo da Vinchi (1452-1519) perspektivaga oid juda ko‘p yangiliklar kiritdi. U tabiatni kuzatar ekan, perspektivada uch yo‘nalish borligini aniqlab, bir xil kattalikdagi



narsalar uzoqlashgan sari bir to‘g‘ri chiziq bo‘yicha kichiklashib borishini aytadi. U bunday hodisani *chiziqli perspektiva* deb atadi.<sup>12</sup>

Ikkinchidan o‘zining tabiatda o‘tkazgan kuzatishlaridan birida narsalar kuzatuvchidan uzoqlashgan sari havo qatlamining qalinlashishi natijasida ularning rangi o‘zgarib borishini aniqladi. Leonardo da Vinchi o‘zining asarida: “Perspektiva tasviriy san’atning rulidir” deb yozgan edi.

Nemis rassomi va o‘ymakori Albrecht Durer (1471-1528) o‘z risolasida tekislikda perspektiv tasvirlarni yasashda ortogonal (to‘g‘ri burchakli) proeksiyadan foydalanishni tadbiiq qilish usulini yozgan. U birinchi bo‘lib perspektiv apparatda tasvirni yasashda ko‘rish nuqtasining qo‘zg‘almas ekanligini isbotladi.

Chiziqli panoramali va quballi perspektivalarning rivojlanishida Uyg‘onish davrining buyuk xaykaltarosh va rassomlari: Mikel-Anjelo- Buonorotti (1475-1561), Rafael’ Santi (1483-1520) va Bramante (1444-1514) ning xizmatlari juda ulkan. Ayniqsa, Mikel-Anjelo rel’efli perspektivaning, Rafael’ esa qubballi perspektivaning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi.

Italiyalik olim Gvido Ubaldi (1545-1607) 1600 yilda “Perspektivadan oltita kitob” nomli. Asarda perspektivaning asosiy masalalarini nazariy jihatdan yoritib berdi.

Fransuz me’mori hamda matematigi Jerar Dezarg (1592-1662) o‘zining 1636 yilda nashr qilingan “Narsalarni perspektivada tasvirlashning umumiy usuli” degan asarida birinchi bo‘lib, perspektiv tasvir yasashda koordinatalar usulidan foydalanishni bayon qildi.

Narsalarning tasvirini chizishda perspektiva quyidagi turlarga bo‘linadi:

**1. Kuzatish perspektivasida**-perspektiva yasash qoidalariga amal qilingan holda narsaning o‘ziga qarab, u qanday ko‘rinsa, shundayligicha tasvirlanadi.

**2. Havoii perspektivada**-kuzatuvchidan uzoqlashgan sari ularning chegaralari xiralashib, ranglari o‘zgarib ko‘rinadi. SHu bilan birga yorug‘lik va soya chegaralari xiralashib, ular o‘rtasidagi farq ham havo qatlami ta’sirida yo‘qola boradi.

---

1. Макарова. М.Х. “Perspektiva”, “Просвещение”, Moskva. 1984 y.

Tabiatdagi narsalarning turlanib turishi ob-havoga, yil fasllariga va vaqtga bog'liq. Tuman tushgan paytda narsalarning rangi mutloq o'zgarib, xiralashib ko'rinadi. Havо ochiq bo'lib, quyosh charaqlab tursa, narsalarning rangi yarqirab turganga o'xshasa ham, ulardan uzoqlashgan sari o'zgarib boradi. Bunday o'zgarishlar havoий perspektivada o'rganiladi. Havoий perspektiva qoidalariga rioya qilib ishlangan kartinalar tomoshabinlarga jozibali va hayotiy bo'lib tuyuladi.

**3. Analitik perspektivada**-tekislik yoki to'g'ri chiziq perspektivasi nuqtalar o'rnini hisoblash yo'li bilan aniqlanadi. Bu erda tasvir (perspektiva) grafik-analitik usulda yasaladi.

**4. Geometrik perspektivada**-tasvirlar yasashning o'zagi hisoblanadi. Tasviri yasaladigan sirtning turiga qarab, geometrik perspektiva quyidagi turlarga bo'linadi: *chiziqli perspektiva, panoramali perspektiva, dioramali perspektiva, qubbali perspektiva, relefli perspektiva, teatral perspektiva, arxitekturali perspektiva, stereoskopiyali perspektiva*.<sup>13</sup>

A) *Chiziqli perspektiva quyidagicha izohlanadi*. Perspektiv tasvir yordamchi chiziqlar vositasida vertikal hamda qiya tekisliklarda yasaladi. Har qanday sirtga perspektiv tasvirlar yasashda perspektivaning bu bo'limi asos hisoblanadi.

B). *Panoramali perspektiva*. Bunda perspektiv tasvir silindrning ichki sirtiga yasaladi. Qarash nuqtasi esa silindr o'qida olinadi. Silindrning ichki sirtida perspektiv tasvirlar yasash usullari ko'p. Aniq tasvir yasash uchun avvalo silindir sirti tekislikka yoyiladi, so'ngra narsaning to'g'ri burchakli (ortogonal) proeksiyasi yordamida perspektiv tasvir yasaladi.

V). *Dioramali perspektiva*. Agar prizma yog'ida (qirrasida) panoramali perspektiva bilan o'z kattaligidagi narsalar birga qo'shib olinsa, dioramali perspektiva hosil bo'ladi.

G). *Qubbali perspektiva*. Tasvir qubba (gumbaz)ning ichki sirtida yasaladi. Ma'lumki, qubba (gumbaz)ning ichki sirti har xil aylanish sirtlarinig qo'shilishidan hosil bo'lishi yoki aylanish sirtining ayrim ko'rinishlari-shar, ellipsoid va boshqalar

---

<sup>13</sup> R.Frunov. «Chizma geometriya kurs», «O'qituvchi», Toshkent, 1988 y.

bo'lishi mumkin. Qubballi perspektiva deyarli panoramali perspektivaga o'xshab ketadi.

*D). Releflı perspektivada.* Perspektiva tekislikda bo'rttirilgan fazoviy tasvirlar yasashda qo'llaniladi. Releflı perspektiva qonunlaridan asosan haykaltaroshlar foydalanadi.

*E). Teatral perspektivada.* Perspektiva releflı perspektiva qonunlariga asoslangan bo'lib, bunda hajmiy tasvirlar bir nechta tekisliklar bilan almashtiriladi. Bu perspektiva dekoratsiyalar yasashning nazariy asoslari bo'lib, hisoblanadi. Bunda perspektiv tasvir ketma-ket joylashtirilgan bir necha parallel tekisliklarda yasaladi. SHunga ko'ra sahna juda keng va ko'p manzarali ko'rinadi. Sahna orti ma'lum bir oraliqda bir-biriga nisbatan parallel yoki burchak ostida joylashtirilib, orqa dekoratsiya bilan qo'shib ketadi.

*J). Arxitekturalı perspektivada.* Bino, yo'l, istirohat bog'lari, sport maydonlari va hokazolarning tasviri arxitekturalı perspektiva vositasida yasaladi. Bunda paralell to'g'ri chiziqlarning "uchrashish" nuqtalaridan foydalaniladi.

*Z). Stereoskopiyalı perspektivada.* Bir narsaning ikki ko'rinishi, ya'ni chap ko'z va o'ng ko'z uchun alohida-alohida perspektiv tasvir yasaladi. Tasvir, hususan, chap ko'z uchun qizil, o'ng ko'z uchun esa ko'k rangli chiziqlar bilan chiziladi va ular anaglif (bo'rttirilgan) tasvirlar deyiladi. Anagliflar maxsus yasalgan qizil va ko'k rangli oynaklar orqali ko'rilsa, narsa xuddi ko'z oldingizda namoyon bo'layotgandek tuyuladi.

**5. Kinoperspektiva.** Harakatdagi narsalarning tasvirini yasashda qo'llaniladi.

**6. Aeroperspektiva.** Bu perspektiva samolyotdan turib erdagi ob'ektlarning tasvirini yasashda yoki aerofoto usul bilan surat olishda qo'llaniladi.

YUqorida bayon qilib o'tilgan perspektiva turlari insoniyat tarixi bilan bog'liq holda rivojlanib keldi va bundan keyin ham rivojlanib bormoqda.

Perspektiva qoidalarini qo'llashda gorizont chizig'ining ahamiyati katta bo'lib, ushbu chizig' tasviriy san'atda ufq chizig'i sifatida qo'llaniladi.

**Ufq chizig'i**-bu chiziqning kartina asosidan balandligi kishining qarash nuqtasiga bog'liq bo'ladi. Qarash nuqtasining balandligi taxminan 1,60 m deb qabul

qilingan. Lekin rassom o‘z asarining mazmuniga qarab gorizont chizig‘ini har-xil balandlikda olishi mumkin.

Kartina ufq chizig‘ining pastroq yoki yuqoriroqdan olinishi tasvirlanayotgan narsalarning turish holatiga bog‘liq.

Ufq chizig‘i kartina o‘rtasining pastrog‘idan o‘tsa, narsalar ta’sirli, hashamatli, bahaybat bo‘lib ko‘rinadi. Bunday asarlarda rassom o‘z qahramonlarini go‘yo musaffo osmonga taqqoslagandek tuyuladi. Ufq chizig‘i kartina o‘rtasining yuqorirog‘idan olinsa, qurilish, dala manzarasi yoki urush maydoni kengroq tasvirlanadi. Rassom bunday kartinalarda er “portretini” va unda sodir bo‘layotgan voqealarni aks ettiradi.

**Ufq chizig‘i** deb, ko‘z balandligidan o‘tadigan nurga aytiladi. Qog‘ozni gorizont holatda ko‘zimiz darajasigacha ko‘tarib, ufq chizig‘ini aniqlashimiz mumkin.

1. Ufq chizig‘idan yuqorida.
2. Ufq chizig‘idan pastda.
3. Ko‘zimiz nuri balandligida (ufq chizig‘i balandligi darajasida).

Ufq chizig‘i har doim ko‘z nuri balandligidan o‘tadi. Agar biz yuqoriga chiqsak u biz bilan ko‘tariladi, pastga tushsak ufq chizig‘i ham pastga tushadi.<sup>14</sup>

**Bosh nuqta.** Bosh yoki markaziy nuqta hamma vaqt gorizont chizig‘i ustida yotadi. Bosh nuqta kartina markazida, uning o‘ng yoki chap tomonida joylashishi mumkin. Tasviriy san’atda bu nuqtaning ahamiyati juda katta.

Tasviriy san’at asarlarini diqqat bilan kuzatilayotganda tomoshabinni beixtiyor bir nuqta o‘ziga jalb qiladi. Etiborni tortgan o‘sha nuqta bosh nuqta bo‘lib, u asar markazi yoki *kompozitsiya o‘rtasi* deyiladi. Leonardo da Vinchining “Sirli oqshom” asarida kartinaning markazida joylashgan Iso obrazi bosh nuqta sifatida talqin etilgan.

Bundan ko‘rinib turibdiki tasviriy san’atning nazariy asoslarining yana bir eng muhim tushunchalari perspektiva va bosh nuqta qoidalari hisoblanadi.

---

<sup>14</sup> O.Mo‘yinov. “Rangtasvir” Toshkent “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxriiyati-2007 yil. 6-bet.

Tasviriy san'atda yorug'lik va soya qonuniyatlari.

Tasvirlanayotgan buyumga qanchalik yorug'lik tik tushsa, uning tasviri shunchalik yaqqol ko'rinadi. Aksincha, chetdan tushayotgan yorug'lik buyumga umumiy tarzda urilib (sinib), ikkinchisiga va uchinchisiga tushishi mumkin. Bu hol tasvirlanayotgan buyumlardagi yorug' soyalar yagona bir majmuani tashkil etadi. Ular quyidagilardan iborat:

A). YOrug'lilik.

B). Soya.

V). YArım soya.

G). Aks.

D). YAltiroqlik.

**Yorug'lik**- quyosh yoki su'niy yoritgichning buyum yuzasiga tik tushuvchi nuridir.

**Soya**-buyumlarning yoritilgan qismining orqa tomoni (teskarisi), yorug'lik tushmagan joyi.

Bunday soyalar **shaxsiy soyalar** ham deb yuritiladi. Tasvirlashda **tushuvchi soyalar** ham kuzatiladi. Ushbu soyalar buyumlarning biri ikkinchisini to'sishi natijasida hosil bo'ladi.

Bunday soyalar buyum tekisligiga (stol, pol, er va hokazo) hamda buyumlarning biridan ikkinchisiga ham tushishi mumkin. Buyumga qiyaroq tushuvchi yorug'lik ularda **yarım soyalarni** tashkil etadi. YArım soyalar, asosan, yorug'lik va shaxsiy soyalar oralig'idagi qismda joylashadi. SHuning uchun soyalar bir xil to'q tusda bo'lmaydi.

Buyumlarning hajmlarini soya va yarım soyalar orqaligina to'g'ri tasvirlash mumkin. Buyumlarga urilish natijasida qaytib, boshqasiga tushuvchi yorug'liklar **aks yorug'likni** hosil qiladi.

**Aks yorug'lik (refleks)** predmetlarning bir-biridan qanday masofada joylashganiga ko'ra kuchli yoki kuchsiz bo'lishi mumkin. Lekin hech qachon tasvirlanayotgan narsada aks yorug'lik buyumlarga tik tushuvchi yorug'likka nisbatan kuchli bo'lmaydi.

Buyumga yorug'likning tik tushishi natijasida esa **yaltiroqlik (blik)** hosil bo'ladi. Bu holat shisha, chinni, temir, sopol va yorug'likni qaytaruvchi xususiyatga ega bo'lgan boshqa ko'pgina buyumlarda kuzatiladi.

Yuqoridagi holatlarni qalamtasvirda yorug' va soyalar qalamda engil chiziqlar (shtrix) bilan amalga oshiriladi. YOrug' va yarim soyalarda chiziqlar tasvirlanayotgan buyumning harakteri va yorug'likning tushishi yo'nalishi bo'yicha dona-dona, aniq bo'lishi kerak.

Tasvirga berilayotgan shtrixlar buyumlarning holati va qattiq, yumshoqligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Bunday ishlangan tuslar buyumlarning konstruktiv tuzilishini yanada yaqqol ko'rsatadi. Buyumlarning hajmini chizishda chiziqlarni tortish ketma-ketligiga rioya qilish kerak. Qalamni qog'oz sirtida bir xil kuch bilan bosganda chiziqlar orasidagi masofalarning teng bo'lishiga etibor berish-buyumni to'g'ri chizishda katta ahamiyatga ega.

Ko'p yillik kuzatishlardan shu ma'lum bo'ldiki, qalamtasvir mashg'ulotlarini o'tishda ayrim pedagoglar qalamtasvirning ilmiy asoslariga, perspektiva qonunlariga, plastik anatomiya va yorug' soyalar nazariyasiga etarli etibor berilmasa, tasvirlanayotgan narsa puxta natija bermaydi.

Buyumlarni o'ziga qarab tasvirlash-tasviriy faoliyatning alifbosidir. Bu umumta'lim maktabi boshlang'ich sinflari o'quvchilaridan tortib to oliy o'quv yurtlari talabalarigacha dasturilamal bo'lishi kerak.

Tasviriy san'at narsani o'ziga qarab chizish davomida tabiatdagi voqea-hodisalar, shakllarning konstruktiv tuzilishlarini tasvirlash qonun-qoidalarini o'rgatadi. Tasviriy sanatni nazariy o'rganishda didaktiv prinsplarning asosiysi hisoblangan-ilmiylik prinsipi etakchi o'rinni egallashi lozim.

### **Tasvir vositalari.**

Qalamtasvir ishlash uchun maxsus ish qurollari bo'lishi kerak.

Ular quyidagilar: maxsus qog'oz turlari (vatman, karton, qattiq rangli formatlar, fransuz tarshyoni), qattiqligi va yumshoqligi turlicha bo'lgan turli **grafik qalamlar**,

**guash va akvarel' bo'yoqlar, yumshoq va shakldagi mo'yqalam, o'chirg'ich, rasm taxtasi (planshet) va molbert.**

Tasviriy san'atning ilmiy-nazariy asoslarini tashkil etadigan bo'limlardan yana biri rangtasviridir.

Rangtasvirning ilmiy negizini rangshunoslik fani tashkil etib, Rangshunoslik bo'lg'usi rassomlarga ranglarning tabiatda hosil bo'lishi va tarqalishi masalalarini, ularning atrof-muhit ta'sirida o'zgarib ko'rinishi, bo'yoqlarni tayyorlash va ulardan foydalanish yo'llarini o'rgatadi.

Ranglarning tabiatda qanday hosil bo'lish va tarqalish hodisalarini qadimdan olimlar va rassomlarning diqqatini tortgan. Uyg'onish davri buyuk rassomlari va nazariyachilari Leon Battista Al'berti, Leonardo da Vinchi va boshqalar rangtasvir haqidagi asarlarida ranglarning xususiyatlari haqidagi asarlarida ranglarning xususiyatlari haqida yozganlar.

Qorong'ida hech qanaqa rangni ko'rinmaydi. Ko'zga quyosh yoki elektr chirog'i nurlari, yorug'lik to'lqinlari tushishi bilanoq, ranglarni his qilish tuyg'usi paydo bo'ladi.

Odatda rangni ko'rib his qilish ikki guruhga bo'linadi: birinchi guruhni axromatik ranglar: oq, qora, kulrang (eng to'qdan eng och ranggacha) tashkil etadi. Bular holis ranglar deb yuritiladi. Faqatgina hech qanaqa birikmalarsiz toza oq kulrang va qora ranglar axromatik ranglarga kiradi.

Keyingi guruhga xromatik ranglar-qora, oq va kulrang ranglardan tashqari barcha ranglar, jumladan, qizil, sariq, pushti, yashil, havoranglar (nimpushti, nimsariq, nimyashil vahokazo ranglar ham) kiradi.

Tasvirda turli raanglarni garmonik, go'zal tus birikmalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kolorit deb ataladi.

Kolorit bizga olamning boy, rang-barang go'zalligini ochib beradi. U musavvirga tasvir kayfiyatini ifoda qilishda yordam beradi. Kolorit osoyishta, zavqlantiruvchi, havotirli, mayus bo'lishi mumkin, shuningdek iliq va sovuq, yorqin

va bog‘liq bo‘ladi. O‘tmish ustozlarining rangtasvir asarlari quyidagi ayrim davrlarda kolorit rivojini kuzatish imkonini beradi.

Rangtasvir san’ati-rang va yorug‘liklar uyg‘unligi san’atidir.

Voqelikni bo‘yoqlar vositasida tasvirga tushirilganda rangning bir-biriga ta’sirini nazarda tutmoq va ranglar uyg‘unligi asosida tasvirlanishi zarur.

Shunisi muhimki, tasvirda to‘g‘ri topilgan ranglar uyg‘unligi, go‘zallikni anglay olish bilan birga, nafis asar go‘zalligini bilish ravnaqiga ham zamin yaratadi.

Tasviriy san’atda amaliy bezak ishlarida va rang uyg‘unliklari ustida ham ish olib boradi, shu bilan birga tasviriy san’at narsa va buyumlar asil ranglarini ramziy yo‘nalishlarini ochib beradi. Naqshda kolorit uyg‘unligiga barcha elementlar, rang kontrastlari va tus jilovlari yordamida erishiladi.

Amaliy bezak ishlarini bajarishda tanlangan rang, uning tasviriy bo‘laklari, ritmik joylashuvlari, nimaga mo‘ljallanganligi va nimadan yasalishi doim nazarda tutiladi.

Dizayn yo‘nalishida rang va shakl bog‘lanishlari, u narsaning qanday maqsadga mo‘ljallanganligi, yorqinligi, jozibadorligi katta ahamiyat kasb etadi.

Rangtasvir asoslarini puxta egallash uchun rangshunoslik nazariyasini qunt bilan o‘rganish va ranglarni to‘g‘ri nomlay olish zarur.

Qadim ajdodlarimiz rang nomlarini buyum, narsa, ashyo, o‘simlik, gul va mevalar nomlari bilan atashga harakat qilganlar va bugungi kungacha bu nomlar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Rangtasvirning ilmiy negizi rangshunoslik fani deyish mumkin. Rangshunoslik ilmi musavvirlar uchun zarur bo‘lgan ranglarning tabiatda namoyon bo‘lishi va tarqalishi, ularning o‘zaro ta’siri, atrof-muhit ta’sirida o‘zgarishlari hamda bo‘yoq tayyorlash va undan foydalanish yo‘llarini o‘rgatadi.

Tabiatda uch asosiy rang mavjud bo‘lib, ular sariq, qizil va ko‘k ranglardir. Ularning birikuvlari natijasida turli tuslar hosil bo‘ladi.

Bo‘yoq-mexanik yoki kimyoviy usul jarayonida tayyorlanib maxsus idishlarda saqlanadi. Bu idishlarda bo‘yoq rang tuslari yozib qo‘yilgan bo‘ladi.

Odatda ularning joylashish tartibi quyidagicha:



1. Limon rang. 2. Sariq rang. 3. Malla rang. 4. To‘q sariq rang. 5. Oltinsimon sariq.
6. Zarg‘aldoq. 7. Qizg‘ish malla. 8. Sarg‘ish jigarrang. 9. Och qizil. 10. Qirmizi. 11. Qizil-qirmizi. 12. YOrqin qizil. 13. Binafsharang. 14. To‘q ko‘k. 15. Ko‘k. 16. Havorang. 17. YAshil. 18. Zumrad. Maysa yashil. 20. Moshrang. 21. To‘q jigarrang. 22. Och jigarrang. 23. Qizg‘ish jigarrang. 24. Qora.<sup>15</sup>

Bu bo‘yoqlar, mavjud bo‘lgan barcha ranglarga ega. Badiiy tasvirni ifodalashda bu kabi rang tuslaridan ko‘plab foydalaniladi. Ranglarni bir-biriga aralashtirib kerakli nozik tuslarni hosil qilinadi. SHu bois rang va bo‘yoqlar xususiyatlarini o‘rganishda ularni mahsus guruhlarga ajratiladi.

Ranglar asosan to‘rt toifaga bo‘linib, ular quyidagicha nomlanadi.

1. Issiq ranglar-olovni eslatuvchi qizil, sabzirang, sariq va shu ranglarga sinonim bo‘lgan boshqa ranglar turkumi.
2. Sovuq ranglar-binafsharang (siyoh), ko‘k, feruzarang va shu ranglarga sinonim bo‘lgan boshqa ranglar turkumi.
3. Neytral ranglar-2 yoki undan ortiq ranglar aralashmasidan hosil bo‘lgan yangi ranglar turkumi.
4. Klassik ranglar-tarixan eng e‘tiborga sazovor bo‘lgan va shu kungacha o‘z ahamiyatini saqlab qolgan, ishlab chiqarish, dizayn, loyihalashtirish, modellashtirish sohalarida keng qo‘llaniladigan eng yorqin ranglar turkumi oq, qora, qizil ranglar.

Ranglar dunyosi va ularning xususiyatlari bilan qadimdan rassomlar, faylasuflar, psixologlar, san‘atshunoslar qiziqib kelishgan va ranglarga turlicha ta‘rif xususiyatlar berishgan.

Ranglar dunyosi xususiyatlari ramziy ma‘noda etti raqami bilan ham bog‘lanib falsafiy ma‘nolarni o‘zida jamlaydi.

1. YAshil-Oy-Dushanba
2. Qizil-Mars-Seshanba
3. Ko‘k-Merkuriy-CHorshanba
4. Zarg‘aldoq-YUpiter-Payshanba
5. Oq-Venera-Juma

---

1. Qarang: B.Azimova. “Natyurmort tuzish va metodikasi” Toshkent “O‘qituvchi” nashriyoti 1984 y. 36 bet.

6.Qora-Saturn-SHanba

7.Sariq-Quyosh-YAkshanba

SHarq faylasuflaridan SHayh Najmiddin Kubro 7 xil rang xislatiga quyidagicha ta'rif bergan.

1.Oq-islom.

2.Sariq-iymon.

3.Zangori-ehson.

4.YAshil-ishonch.

5.Ko'k-to'liq ishonch.

6.Qizil-irfon.

7.Qora-hayajon, hayratni anglatadi.

Tabiatdagi ranglar ikki qismga bo'linadi: axromatik va xromatik.

Xromatik ranglarga-oq, qora, kulrang kiradi. Axromatik ranglarga-qizil, yashil, ko'k ranglar kiradi.

Ranglar quyidagi xarakterlarni o'z ichiga oladi: rang nomlari, rang tusi, rang koloriti, rang yorqinligi, rang jozibasi, rang to'yinganligi, ranglarning vazminligi.

Rang xususiyatlaridan rassomlardan boshqa ijodkorlar ham majoziy ma'noda asar mazmunini boyitishda unumli foydalanishadi.

Masalan: Ko'ngli pok, qalbi toza insonlarni-oq ko'ngil. YOvuz niyatli kishilarni-qora kuchlarga qiyoslab tasvirlashadi.

Tasviriy san'atda esa bu holat ayniqsa fasillar misolida aniq ko'rinadi. Qish-oq, moviy, toza tiniq ranglardan tashkil topganligi uchun-bolalikka qiyoslanadi.

Bahor-tabiatning uyg'onishi bo'lganligi uchun asosan yashil-yosharish fasli-beg'ubor yoshlikka qiyoslanadi.

YOz-barcha ranglar ishtiroki mujassam bo'lganligi sababli uni insonning navqiron davri (o'rta yosh) ga qiyoslanadi.

Kuz- daraxtlarning barglarini to'kishi, xazonrezgi fasllar so'ngi, inson umri yakuni keksalik-sariq, zarg'aldoq, jigarrang kabi ranglarga qiyoslanadi.

Shu sababli ayriliq, xijron kabi holatlar tasviriy san'atda, badiiy adabiyotda majoziy ma'noda kuz fasli va uning xazon ranglari bilan ifodalanadi. Ranglarga

ta'rif berishda Najmiddin Kubroning «Latoif nazariyasi» asari ham bizga ko'plab ma'lumotlar beradi.

Ranglar orasida qora rangga evropalik ayrim faylasuf va psixologlar salbiy harakter bergan.

Kubro ulardan farqli ravishda qora rangga ijobiy tasnif beradi. Uning ranglar nazariyasida qora rang insonni olloh dargohiga olib boruvchi yagona xaq yo'ldir.

Dunyo cheksiz sir-sinoatlardan iboratdir. Uni kvadrat asariga ramziy ma'noda o'xshatish bo'ladi. Zero "kvadrat"-uning abadiy yaralganligini, u olamni moddiy asosi to'rt unsurdan, ya'ni er, suv, havo va olovdan iboratligi, to'rt tomoni-cheksizlik timsolini anglatsa, "qora rang" esa mavhumlik dunyo sir-sinoatining barchasini anglab bo'lmas sir ekanligidan dalolat beradi. Insoniyat naqadar shu sirlarni bilishga harakat qilmasin, biroq uning tafakkuri o'z o'ziga o'z qiziq qilishi, tabiiydir.<sup>16</sup>

Ko'z vazifasini tafakkur o'z zimmasiga oladi. Tafakkur esa chegara bilmaydi. Tafakkurning shakl-shamoyili yo'l hayrat sanamini egallagan shuur omon ekanki, tinim bilmaydi-qorong'ilikni anglashga intilaveradi.

Anglash, bilish, idrok etish qorong'ilikni charog'onlashtirish demakdir. Aql chirog'i yorita olgan joyda mavhumlik bo'lmaydi, zulmat barham topadi.

Ne ajabki, fikr va aql chirog'i inson miyasida yoqiladi. Miya esa-qora quti. "Miya qora-quti" deydi shoir. XX asr rus avangard rassomchiligining asoschilaridan biri Aleksandr Maleyevich miyani "qora to'rtburchak" shaklida tasavvur qilgan edi.

"Qora quti", "Qora to'rtburchak", tasvexlardagi qora rang naqadar keng, naqadar ezgu, naqadar yorug' ma'nolarni anglatishi esa zamin qadar bayon etildi.

"Qora quti" insonni tinimsiz "qora to'rtburchak"ning eng markaziy nuqtasiga tikilishga undaydi. Inson tabiatan ana shu qorong'ilikning ko'z va shuur ilg'amas tub qatlamlaridan o'ziga tinchlik bermayotgan savollariga javoblar izlashga intiladi.<sup>17</sup>

Ranglarni ilmiy izohlashda ularning quydagi hususiyatlariga ham alohida e'tibor berish lozim, rang koloriti, ranglarning qarama-qarshiligi, rang gammasi, rang toni, ranglarning to'yinganligi.

---

<sup>16</sup> S.S.Bulatov. "Rangshunoslik" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent 2009 yil. 59-bet. Komil inson qalbidagi ranglar. Sarlavhasi ostida.

<sup>17</sup> X.Do'stmuhammad. Qorong'ulik-yorug'lik timsoli. "Yosh kuch jurnali" jurnali, 1995, 5-6-son.

Har qanday rang ham boshqa ranglar ta'sirida o'zgaradi. Bu hodisalaranglarning bir vaqtdagi qarama-qarshiligi deyiladi.

Rang koloriti-tasviriy san'at asarlaridagi turli ranglarning garmoniyasi, go'zal tus birikmalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqligi, badiiy asardagi etakchi rang.

Rang gammasi-tasvirlarni ishlash jarayonida qo'llanadigan tus va ranglarning o'zaro muvofiq kelishidir.

Rang toni-och-to'qligi va yorqinligi demakdir.

Ranglarning to'yinganligi ham har ikki rang guruhiga xos sifat bo'lib, u axromatik ranglarda ko'proq kulranglar shkalasiga, xromatik ranglarda esa, ko'pincha spektr ranglariga solishtirish yo'li bilan aniqlanadi.

Rang kontrasti-bitta rangning har xil tuslari o'rtasidagi, ya'ni uning bir-biridan nozik farqlanadigan tuslari o'rtasidagi qarama-qarshiliklari hisoblanadi.

Bundan tashqari rangli rasm ishlashda turli xil usullarni qo'llash mumkin, masalan grizayl rang uslubidan foydalanish. Grizayl-bir rangli bo'yoqdan foydalanib rasm chizish. Grizayl uslubida rasm ishlashni o'zlashtirish uchun och-to'qligi va shakli bir-biridan farq qiladigan ikki yoki undan ortiq narsalardan tuzilgan natyurmort, kompozitsiya yoki boshqa narsalarni tasvirlash mumkin.

Rangtasvirning ilmiy-nazariy asoslarini mukammal o'zlashtirib borishda dastlabki chizish mashg'ulotini o'quv natyurmortidan boshlash maqsadga muvofiq. O'quv natyurmorti<sup>18</sup> ijodiy natyurmortdan ancha farq qiladi.

O'quv natyurmortining dastlabki mashg'ulot uchun tuziladigan natyurmort sodda buyumlardan tashkil topishi muhim ahamiyatga ega. CHizilish uchun tanlangan narsalarning narsalarning ranglari bir-biriga monand bo'lib, birgalikda uyg'unlashib ko'rinishi shart.

Har qanday san'at asarining asosini kompozitsiya<sup>19</sup> yaratish etadi. U asar tuzilishida qismlarning asar g'oyasiga muvofiq joylashtirilishini va o'zaro munosabatini anglatadi. Tasviriy san'atda kompozitsiya tushunchasi muhim ahamiyatga ega, u simmetriya va asimmetriya, muvozanat va ritm, turg'unlik

---

<sup>18</sup> Natyurmort-fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, jonsiz tabiat degan ma'noni anglatadi. Unda asosan gullar, meva-chevalar, buyumlar yig'indisi va shunga yaqin bo'lgan boshqa narsalar tasvirlanadi.

<sup>19</sup> Kompozitsiya-lotinchadan tuzilgan, ijod qilish demakdir.

(statika) va harakat (dinamika), ikkinchi darajali narsalarning birinchi darajali narsalarga (asosiyga) bo'ysunishi, ko'rish markazi va ko'pincha unga mos keladigan kompozitsion markazni bo'rttirib ko'rsatish kabi qoidalarni o'z ichiga oladi.

Kompozitsiya qoidalarinig asosiy talablari yaxlitlik, simmetriya va ritm-tabiat yaratgan narsalarda, shakllarda-gul va barglar tuzilishida, ularning daraxt novdasida joylanishida, yaqqol ko'zga ko'rinib turadi.

Natyurmort tuzish-ijod qilish. Buning uchun rassomning didi va layoqati, kompozitsion madaniyati ko'zga tashlanadi. Tasodifan terilgan yoki terilib qolgan narsalarni natyurmort deb bo'lmaydi. Mukammal natyurmort tuzish uchun uning kompozitsion echimi ma'noli va ta'sirchan chiqishi uchun yagona mavzudagi, bir-biriga munosib va narsalar tabiiy bog'lanishda qo'yilishi kerak. Qo'yilgan natyurmort chizuvchi va tomoshabinda havas va qiziqish uyg'otadigan, kompozitsiya qoidalariga to'liq javob bera oladigan bo'lishi shart.

Tanlab olingan narsalarni predmet tekisligida bir-biriga va fon (orqa sath)ga nisbatan qanday joylashtirilishi natyurmortning qiziqarli chiqishiga ta'sir etadi.

Sharden, Surbaron, Kalf, Snayders, K.Korovin, I.Mashkov, P.Konchalovskiy va boshqa natyurmortnavis rassomlar asarlarida hayotiy haqiqatni, matoda jonlangan tabiatni ko'ramiz.

Ko'rinishidan oddiy bo'lib tuyulgan narsaning rangtasvirini yaratish uchun judada ko'p bilimga ega bo'lish va mashq qilish lozim. Rangtasvirning murakkabligi shundaki, narsalarning rangini xilma-xil tuslanishini atrof muhit ta'sirida aks ettiradi. Bu holat tabiat qo'ynida aks ettirilayotga tasvirlarda ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi.

Tabiatda biz ko'rib turgan narsalar, bizdan uzoqlashgani sari narsalarning rangi (olisdagi o'rmon, tog'lar va h.k.) havo rang tusga kiradi, ular xiralashib, nursizlanib ko'rinadi. Buyum va narsalarning uzoqlashib borishiga qarab, rangdorlik va ko'rinish ravshanligidagi o'zgarishlar-havoiy perspektivani ifodalaydi. Agar biz tasvirlayotgan narsa interer<sup>20</sup> (xona ichi)da bo'lsa, muhitning ta'siri o'zgacha

---

<sup>20</sup> Inter'er-xonaning ichki ko'rinishi.

bo‘ladi, ya’ni derazadan uzoqlashgan sari narsalarning rangi xiralashadi, ravshanligi birmuncha yo‘qoladi.

Rasm ishlashda ayniqsa natyurmort ishlaganda yorug‘likning yo‘nalishi va uning kuchini hisobga olish kerak. Narsalarning hajmdorligi ularning sirtida yorug‘soya va ranglarning tarqalishi tufayli ko‘zga ko‘rinadi. Qalamtasvirda rasm chizilganda uning asli shakli emas, balki perspektivada o‘zgarib ko‘ringan shakli tasvirlangani kabi, uni bo‘yoqda ishlaganda ham o‘zining aniq rangi emas, balki atrofdagi boshqa ranglar ta’siri bilan bog‘lanishda ko‘zga ko‘ringan rangi ifodalanadi. Bunday ifoda shuni ko‘rsatadiki rangtasvirda rang tushunchasi narsaning asl rangi (lokal)<sup>21</sup> yoki qanday rangga bo‘yalganligini emas, uning aynan shu muhitda ko‘zga ko‘rinib turgan rangini anglatadi.

Natyurmort tuzish uchun quyidagi qoidalarga katta ahamiyat berish kerak.

A). Mavzu tanlash;

B). Natyurmort mavzusiga mos keladigan narsalar va gazlamalar topish;

V). Narsalarning shakli, tuzilishi, toni va ranglarini hisobga olib joylashtirish;

G). Predmetlarning hajmdorligini yaqqol ko‘rinadigan tarzda yoritish zarur;

SHular asosida esa natyurmort kompozitsiyasi yaratiladi. Natyurmort mustaqil janr bo‘lishi bilan birga, tematik suratlardagi asarlarning mazmunini ochib berishda ko‘maklashuvchi, uni to‘ldiruvchi vosita bo‘lib ham xizmat qiladi.

Tasviriy san’at haqida mukammal ma’lumotga ega bo‘lish uchun quyidagi manbaalar muhim ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san’atning vujudga kelishining tarixiy ildizlari insoniyat taraqqiyot bosqichlarining ilk ibtidoiy davriga to‘g‘ri keladi, shu sababli har bir narsaning o‘z ibtidosi bo‘lgani kabi inson hayotidagi tasvirlashga bo‘lgan dastlabki ehtiyojlar qaerda va qachon paydo bo‘lganligi to‘g‘risida aniq va asosli ma’lumotlarga tayanish kerak.

Tasviriy san’atning ilmiy-nazariy asoslarini mukammal o‘zlashtirish uchun tasvirlash qonun-qoidalari haqida aniq va asosli ma’lumot hamda amaliy tajribaga ega bo‘lish kerak. Tasviriy san’atning tarixiy taraqqiyot bosqichlari

---

<sup>21</sup> Lokal-narsa yoki buyumning asl rangi.

## **I bob bo'yicha xulosalar**

Bitiruv malakaviy ishimizning 1-bob va paragraflardan shu narsa ayon bo'ldiki insoniyat tarixining olis davrlariga borib taqaladi. Bundan ko'rinib turibdiki odamlar o'zlaridagi san'at dunyosiga bo'lgan qiziqishlarini taraqqiyot bosqichlaridan ancha ilgari boshlaganlar. Yuqoridagi ma'lumotlarning barchasi tarixiy manbaalarga asoslanib taxlil qilindi.

## **II.BOB.TASVIRIY SAN'ATNING MA'NAVIY XAYOT BILAN BOG'LIQLIGI**

### **2.1.Mustaqillik yillarida tasviriy san'atning rivojlanishi**

Yangi avlodni barkamollik ruhida tarbiyalashda ularda nafosat tuyg'usi ijodkorlik qobiliyatini o'stirish uchun tasviriy san'at predmeti va san'at sohasidan unumli foydalanib, shaxs ongida ma'naviy dunyoqaratishni boyitib boradi.

YOsh avlodni tasviriy san'at orqali estetik tarbiyalashda uning iste'dodli namoyondalari va ularning ijod namunalarini badiiy jihatdan o'rganish lozim.

1990 yillargacha bo'lgan davrda rassomlar katta avlodining iste'dodli namoyondalari O'zbek milliy tasviriy san'ati rivoji uchun zamin yaratishdi. Turli rassomlik maktablarida taxsil olgan, har xil transavangard, ya'ni dunyo tasviriy san'atidagi kechayotgan jarayonlarni o'rganishga intilish samarali ta'sir ko'rsatdi. Bu esa respublikadagi badiiy muhitni yanada jonlantirdi.

O'zbek tasviriy san'atida 1990-yillarga kelib, milliy o'zlikni anglashda, sobiq sotsialistik "qolip"larni buzilishiga olib keldi va mavzuli kartinalarda qo'llanilib kelingan tantanavor ruhdagi kompozitsiyalardan asta-sekin qutilish tendensiyasi sezila boshladi.

O'zbekistonda tasviriy san'atning dastgohli kartina janrida 1980 yillarda metaforik (tasvirdagi xodisalarni qiyosiy o'xshatish) obrazlar orqali yangicha shakl va mazmunda gavdalantirilgan asarlar yaratildi. O'zbekiston rangtasvir san'atida ham V.Oxunov, S.Alibekov va birinchi o'zbek syurrealisti (syurrealizm fransuzcha "o'ta realizm" ya'ni ayni xaqiqat degan ma'noni anglatadi) M.Taxtaev xuddi shunday asarlar ijod qilishdi. Bu rassomlarning har biri o'ziga xos tasviriy ifoda uslublari orqali dastgohli rangtasvirning yangicha ifoda imkoniyatlarini namoyish etishib, asarlarda O'zbekiston tabiati, uning kishilari hayotining ta'sirchan manzaralarini gavdalantirishdi. Ularning yangicha uslubdagi ushbu asarlari tomoshabinlar e'tiborini tortdi.

V.Oxunov kartinalarida Farg'ona vodiysining o'ziga xos tabiati, kishilarining hayot tarzi neofuturistik uslubda turli ramz-shiorlar asosida yorqin



badiiy aks ettirilgan. SHu boisdan ular tomoshabinlarda yangicha his-tuyg'ular uyg'otadi. V.Oxunov G'arbiy Evropa mamlakatlariga borganida u erdagi installyasiyalarga qiziqib qoldi. Va 1990-yillarda O'zbekiston birinchilardan bo'lib, u san'atning ushbu yangi yo'nalishida asarlar yaratdi. K.Maleevich o'zining mashxur "Qora kvadrat"ida mumtozrangtasvir prinsiplarini qat'iyankor inkor etgan bo'lsa-da, lekin u ushbu asarida ham dastgohli kartina "qolip"i (ya'ni ramka ichida, moybo'yoq bilan xolstda) va dastgohli rangtasvir ifoda vositalaridan foydalanilgan.

Hozirgi postmodernchilar esa dastgohli kartina vositalari va uning boy imkoniyatlaridan deyarli foydalanmasdan asar yaratishmoqda.

O'zbekiston rassomlarining dastgohli kartina janridagi barcha asarlari ham talablarga javob bermasa-da, lekin janrning rivojlanishi davom etmoqda. Iste'dodli rassomlarning har bir avlodi bu janrning yanadarivojlanishiga munosib hissa qo'shmoqda.

Mustaqillikka erishilish rassomlar ijodiga ham ko'tarinki ruh erkinlik bag'ishladi. Istiqlolning dastlabki yillarida Markaziy Osiyoda birinchilar qatorida respublikamizda badiiy akademiyaning tashkilqilinishi mustaqil mamlakat madaniy hayotida yangi davrni boshlab berdi.

O'zbekistonning mustaqilligi milliy tasviriy san'atimiz taraqqiyotiga katta imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Bu davrda tasviriy san'atning rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika turlari yanada rivojlandi. San'atning janrlarida o'nlab rassom va haykaltaroshlarning erkin ijodiy faoliyati keng tus oldi. Sobiq ittifoq davrida ijodkorlar yagona "sotsialistik realizm" yo'nalishida ijod qilgan bo'lsalar, hozir ular hech ikkilanmasdan o'zlarini qiziqtirayotgan avngardizm, romantizm, impressionizm, abstraksionizm va boshqa qator ijodiy yo'nalishlarda va mavzularda yuksak badiiy saviyadagi asarlarni yaratmoqdalar.

Mamlakatimizda tasviriy san'atning taraqqiyotida O'zbekiston Badiiy Akademiyasining tashkil etilishi ham muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur akademiya qoshida Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomchilik va dizayn instituti, san'atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti, ko'plab rassomchilik, dizayn

kollejlari, “San’at” jurnali faoliyat ko‘rsatmoqda. Milliy rassomchilik va dizayn institutida, tasviriy san’at yo‘nalishlaridagi kollejlarda bugungi jahon ta’lim standartlariga mos keladigan milliy kadrlar etishib chiqmoqda va ular O‘zbekiston san’atini yanada baland bosqichga olib chiqishi shubhasizdir.

Mustaqillik yillarida ijod qilayotgan rassom va haykaltaroshlarimizning yutuqlari shundaki, ular birinchidan erkin ijod yo‘liga o‘tdilar, ikkinchidan milliy badiiy an‘analarni davom ettirish, milliylik va umuminsoniy qadriyatlarining uyg‘unligini ta’minlash borasida yangi, zamonaviy, ilg‘or tasviriy texnologiyalarni qo‘llab, muvaffaqiyatli asarlarni yaratdilar.

Buni S.Saidov, N.Qo‘ziboev, B.Boboev, V.Burmakin, M.Yo‘ldoshev, J.Quttimurodov, T.Mirjalolov, T.Quryozov, A.Ikromjonov, J.Umarbekov, B.Jalolov, A.Mirzaev, Z.Faxriddinov, R.Xudoyberganov, N.Oripova, A.Mo‘minov, A.Nuriddinov kabi rassom va haykaltaroshlar ijodida yaqqol ko‘rish mumkin.

Manzara va natyurmort samarali ijod qilayotganlar orasida B.Jalolovning “Oltin asr”, “Koinot ustunlari”, “Abadiyat gumbazi ostida”, S.Alibekovning “G‘aroyib sharbat ifori”, J.Umarbekovning “Zilzila”, “Havorang musiqachilar”, V.Oxunovning “Buddaning tonggi sayri”, kabilar diqqatga sazovordir.

Shuningdek A.Isaev, J.Usmonov, A.Roziqov, R.Temurov, T.Axmedov, T.Karimov, SH.Abduraxmonov, B.Ismoilov, G‘.Qodirov kabi yosh rassomlar ham barakali ijod qilmoqdalar. Ularning ijodiy ishlarida reallik, oydinlik to‘la o‘z ifodasini topadi.

Chingiz Ahmarov boshlab bergan mahobatli rangtasvir yo‘nalishi istiqloq davrida yangi bosqichga ko‘tarildi. Bular Respublikamizning ko‘plab jamoat va madaniy binolari, shu qatori Toshkent metrosi bekatlariga ishlangan devoriy suvrat, mozaika, vitrajlarda ko‘rish mumkin.

Bu borada A.Aliqulov, B.Olimxonov, A.Ikromov, A.Isaev, E.Muhammadiev, N.Sultonov, N.Xolmatov, SH.Muhammadjonov, A.Buxorboev, T.Boltaev, X.Nazarov kabi ijodkorlar ustozlari an‘analarini davom ettirib yangidan-yangi muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar.

Mozaika, vitraj bo'yicha B.Jalolov, A.Buxorboev, V.Gan, I.Egorovlar barakali ijod qilishib "Umar Xayyom tushi", "Nechun tug'ilganim xech kim aytmaydi", "Navro'z", "Tuman ma'budasi", "Abadiyat gumbazi ostida". "Buyuk Sohibqiron-buyuk bunyodkor", "Sport o'yinlari tarixi", "Buyuk ipak yo'li", "Flora" kabi betakror asarlar yaratdilar.

O'zbekistonda rangtasvir san'ati o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tarilmoqda va so'nggi yillarda yurtimizda ko'plab iqtidorli yosh rassomlar etishib chiqmoqda.

Jumladan haykaltaroshlik ham istiqlol davrida tasviriy san'atning mustaqil turi sifatida o'zining yangi taraqqiyot bosqichiga o'tdi.

Bu yillarda o'zbek haykaltaroshlaridan I.Jabborov va K.Jabborovlar, K.Norxo'rozov, J.Quttimurodov, E.Aliev, A.Rahmatullaev, samarali ijod qildilar. Bu haykaltaroshlarning asarlari orasida o'zining yuksak badiiyligi bilan J.Mirtojievning Ablulla Qodiriy haykali alohida ajralib turadi.

Shuningdek E.Aliev, N.Bondeladze, V.Degtyarovlarning Toshkentdagi milliy bog' uchun yaratilgan "Alisher Navoiy" (1991 y) nomli yodgorlik haykali, A.Rahmatullaev va P.Podosinnikovlarning Navoiy shahriga o'rnatilgan Alisher Navoiy haykali (2001 y). I.Jabborov va K.Jabborovlarning Toshkentning Amir Temur xiyoboniga o'rnatilgan Amir Temur haykali (1993 y). SHahrizabz shahri uchun yaratilgan Amir Temur haykallari (1996 y.) o'zining yuksak badiiyligi bilan alohida e'tirofqa loyiqdir.

I.Jabborov va K.Jabborovlar tomonidan yaratilgan Amir Temur haykali (1996 y.) Sohibqiron bobomizning 660 yilligi munosabati bilan SHahrisabzda o'rnatildi. Xuddi shu mualliflarning Ahmad Al-Farg'oniya bag'ishlangan ishlari 1998 yilda Farg'ona shahri uchun bunyod etildi.

Xalq qahramoni Jaloliddin manguberdi timsoli (1998 y.) I.Jabborov va K.Jabborovlar tomonidan yaratildi va u hozirda Urganch shahrini bezab turibdi.

Iqtidorli haykaltarosh R.Mirtojiev tomonidan Andijon shahrida o'rnatish uchun yaratilgan Zahiriddin Muhammad Bobur, shuningdek, CHo'lpon haykallari, Toshkent shahri uchun mo'ljallangan Abdulla Qodiriy, Jizzax shahri uchun "Ona"

yodgorlik-haykallari ham o‘zining yuksak badiiyligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

1999 yilda o‘zbek xalq dostoni “Alpomish” yaratilganligining ming yilligi keng nishonlandi. Bu sanaga bag‘ishlab A.Rahmatullaev rahbarligidagi bir ijodkorlar o‘ziga xos yodgorlik majmuasini yaratdilar. Unda Alpomish bilan bir qatorda Barchinoy va YOdgor timsollari ham yaratilgan bo‘lib, bu muhtasham yodgorlik Termiz shahrida qad rostlab turibdi.

Mustaqillik yillarida o‘zbek grafik rassomlarining ijodida milliylik va zamonaviylikning uyg‘un tarzda rivojlanayotganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Keksa va o‘rta avlod rassomlari Q.basharov, M.Kagarov, M.Sodiqovlar bilan bir qatorda V.Apuxtin, G‘.Boymatov, A.Mamajonov, B.Ismoilov, D.O‘razaev, S.Ishoqov, T.Ayupov, T.Ahmadaliev, R.Azizov, G.Sultonova, L.Ibragimov kabilar samarali mehnat qilmoqdalar. Ular tomonidan ishlangan kitob grafikasi, plakatga doir asarlar mazmuni va g‘oyaviyligi bilan diqqatga sazovordir. Buni V.Apuxtinning “Koinot-inson”, G‘.Boymatovning “Urgutda to‘y”, A.Mamajonovning “Kurash”, “Eski shahar”, T.Ayupovning “Mavzu”, T.Ahmadalievning “Senga omad, Temur”, L.Ibragimovning “Osiyo okeani”, “Bahor”, M.Sodiqovning “Buxoro”, S.Redkinning “Qadimiy Samarqand”, N.Kolonovning “Kulol”, SH.Muhammadjonovning Mahmud Qoshg‘ariyning “Devni lug‘atit-turk” nomli asariga ishlangan tasviriy asarlarida ko‘rish mumkin.<sup>22</sup>

Mustaqillik davrida ijod erkinligi paydo bo‘lib, uning natijasida turli uslub, yo‘nalishda, istalgan mavzuda asar yaratish mumkinligi o‘zining ijobiy samarasini bera boshladi.

B.Jalolovning aksariyat ishlari tasviriy san‘atning mahobatli rangtasvir turiga mansub bo‘lib, rassom bu yo‘nalishda Qarshi musiqa drama teatri binosiga (1981 y), Tolshkentdagi kinochilar uyiga (1982 y), “Turkiston” saroyiga (1993 y), “Bahor” konsert zaliga (1982 y) , Qo‘qon teatri binosiga (1987 y) va boshqa bir qator ijtimoiy va madaniy binolar inter‘eriga devoriy bezak ishlarini bajargan.

---

<sup>22</sup> P.Хасанов. “Тасвирий санъат асослари” F.Фулум номидаги нашриёт матбаа-ижодий уйи. Тошкент-2009 й. 72-76 бетлар.

Dastgohli rangtasvirda ham B.Jalolov samarali ijod qildi. Xususan, bu borada uning muvaffaqiyatli ishlari qatoriga “Isfarada bahor”, “Tog‘ qishlog‘i”, “So‘qmoq”, “Afg‘oniston tongi”, “Ibn Sino” nomli asarlarini kiritish mumkin.

Musavvirlar ijodidan, avvalo, istiqlol mavzusi keng o‘rin oldi. B.Jalolov asarlarida yangi-yangi mavzu va g‘oyalar namoyon bo‘la boshladi. U o‘zining “Pazolini II xotirasiga” kompozitsiyasida sho‘ro saltanati tugaganini ifoda etgan. Unda voqealar turli ramzlar, timsollar, ishoralar orqali gavdalanitirilgan. O‘ziga xos izlanish samarasi sifatida yaratilgan ushbu asar xaqida yozish kepak.

“Pazolini II xotirasi” kompozitsiyasi tasviriy san‘atning plakat janrida yaratilgan bo‘lib, unda sho‘ro saltanati tanazzuli turfa xil ranglar uyg‘unligida ko‘rsatiladi. Mazkur ramziy asarda endi unib chiqqan bahor chechaklari tasvirlangan.

Bahodir Jalolov dunyoviy miqyosda mushohada yuritadigan, umuminsoniy muammolarga o‘ziga xos nuqtai nazardan yondashadigan rassomlar sirasiga kiradi. U hayot xodisalariga. Undagi o‘zgarishlarga umuminsoniy ma’naviy qadriyatlar nuqtai nazardan qaraydi.

“Pazolini II xotirasi”da sovuq, issiq, qizg‘ish ranglar to‘qnashuvida hayot va o‘lim kurashi gavdalanitirilgan. Asarda qarama-qarshiliklar bilan to‘lib-toshgan muhitda yashin tezligida paydo bo‘lgan yorug‘lik yangilik bo‘lib ko‘zga tashlanadi. Kompozitsiya yangi jismning unib-o‘sayotgani va harakatga kelayotganini ifodalaydi. Asar ijodkorning teran va lo‘nda g‘oyasini tasvirlar orqali bayon qilib beradi.

Rassom Bahodir Jalolovning “Pazolini II xotirasi” kompozitsiyasi mazmuniga yanada chuqurroq kirib borar ekanmiz unda mikroblarning shiddatli kurashi jarayoni ifoda etilganligini ko‘ramiz. Mikroblar, mayda hujayralar o‘rnini farishta egallashi kutilmoqda. Kelajakka ishonch bilan qarash rassom izlanishlarining leytmotivi hisoblanadi.

Rassom ijodida mustaqillik nashidolari mevasi sifatida qator boshqa sermazmun asarlari ham dunyo yuzini ko‘rdi. Bulardan yana biri “Metamarfoza olami”asari hisoblanadi. Kompozitsiyada rassom ramzlar orqali Bobur va

Mashrabning ruhiy olami ifoda etilgan. Kartinada Bobur va Mashrab taqdiri, qismati taqqoslanadi. Ma’rifat, tarqatib kishilarning hayot yo‘lini charog‘on qilgan bu ulug‘ siymolar qismati, ularning ruhiy dunyosi rassomni falsafiy mulohaza yuritishga chorlaydi.

Mustaqillik davri ijodkorlaridan yana biri L.Ibragimovdir. L.Ibragimov ijodida Uzoq SHarq rangtasviri, Turon freskalarining ta’siri seziladi. Uning “Tun va kun”, Akmal Nurning “Buloq” asarlari O‘zbekiston zamonaviy rangtasvir san’atidagi barkamol asarlardir. Mazkur asarlarni bu rassomlar ijodiy izlanishlarining o‘ziga xos yakuni desa bo‘ladi. Ushbu asarlarda mualliflar tasvirlarni timsollar, ramziy belgilar orqali insonruhiy kechinmalarini, insoniyat taqdiri koinot bilan uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. “Buloq” kompozitsiyasida A.Nur baliq og‘ziga zar kukunlari singari donalarning tushishi, qizning buloq suviga tanga tashlashi tasvirlangan. Unda baliq muhabbat ramzi sifatida ko‘rsatilgan. Dur donalariga to‘la tekis yuzaning jilolanishi, qiz va yigitning nafis, nozik, sirli hatti-harakati, imo-ishoralari orqali insoniy muhabbat go‘zalligi gavdalantirilgan.

Uchinchi ming yillikning boshida O‘zbekiston badiiy madaniyati zamonaviy talablar darajasida bo‘lishga intilmoqda. Bu fan va madaniyatning barcha sohalarida, shuningdek respublika uchun yangi hisoblangan yo‘nalish “Badiiy xis qilish psixologiyasi”da<sup>23</sup> ham kuzatilmoqda.

Ma’lumki, badiiy asarlar go‘zallik qonuniyatlari asosida yaratiladi.

Tasviriy san’at falsafa, psixologiya yo‘nalishlari bilan qorishib ketadi.

Hozirgi o‘zbek tasviriy san’atining kartina janridagi asarlar uchun turli uslublardan foydalanish, bir-biriga zid fikrlarni, nazariyalarni qorishtirib yuborish harakterlidir. Mustaqillikgacha modernizm yagona uslub sifatida hukumron bo‘lib, uning tarkibida abstroksionizm, suprematiz, syurrealizm va boshqa yo‘nalishlar va uslublarni inkor etib kelgan.

Zamonaviy san'atda o'tmish san'atiga xos arxaikadan tortib yuksak realistik maktablarga xos turli uslublargacha bir-biri bilan uyg'unlashganini ko'ramiz. Bunday sintez tasviriy san'atda yangi plastik tilni vujudga keltiradi.

Istiqlol yillarida ko'p rassomlar jahonning rivojlangan qator mamlakatlari san'ati bilan bevosita tanishishadi. Ular o'z asarlarini jahon tasviriy san'ati fonida ko'rish, tahlil qilish, yangicha izlanishlar olib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

San'at nazariyasi psixologiya bilan XX asr boshlarida birlashdi. Ammo, ular jamiyat dunyoqarashining turli shakllarida bir-biriga ta'sir etgan holda rivojlanib keldi.

San'atshunoslik va psixologiya o'rtasidagi aloqa o'zaro uyg'unlashib, san'atning insonga ta'sirini izohlash jarayonida san'at asarining ta'siri psixologik mexanizmlarga (psixologik ibtido) borib taqalishi to'g'risida dalolat beradi.

Mustaqillik yillari arafasida O'zbekiston tasviriy san'atida yangicha yo'nalish izlanishlari ko'zga tashlanadi.

O'zbekiston tasviriy san'atining yangi odimlari ko'zga tashlandi. Bunda miflar, afsonalar, doston va rivoyatlar asosidagi chizgi va shakllar asosiy vosita sifatida olingan kompozitsiyalar juda e'tiborlidir.

O'zbekiston Badiiy akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, "O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi" jamg'armasi, Toshkent shahar hokimligi hamkorligidatashkil etilgan mazkur halqaro ko'rgazma yurtimiz madaniy hayotidagi o'ziga xos yorqin voqealardan biri – "Art Week Style. Uz-2011"<sup>24</sup> san'ati xaftaligining debochasi bo'ldi.

Xalqimizning milliy va jaxon san'ati durdonalaridan bahramand bo'lishi, ijodkorlarning erkin, sermahsul va samarali mehnat qilishi uchun bacha zarur sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda. Buning samarasida istiqloq yillarida ko'plab musavvirlarimiz, iqtidorli yoshlar o'zining eng sara ijod namunalari bilan xorijda o'tayotgan nufuzli ko'rgazmalarida, xalqaro ko'rik tanlovlarda muvaffaqiyat qozonmoqda.<sup>25</sup>

---

24

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yurtimizning barcha xududlarida barpo etilgan madaniyat koshonalari, galereya va ko‘rgazma zallari, san’at yo‘nalishidagi ta’lim muassasalari yoshlarning badiiy didini yuksaltirish, yuksak ma’naviyatli barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Bular Toshkent xalqaro zamonaviy san’at biyennalesining maqsad va vazifalarida ham o‘z ifodasini topgan. 2001 yildan buyon an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan mazkur xalqaro ko‘rgazma “San’at – bunyodkorlik va insonparvarlik timsoli” degan xayotbaxsh g‘oyani o‘zida mujassam etgan. Zero, bugungi globalashuv davrida odamlarni ezgulik, ma’rifat, xamjixatlikka chorlashda ijodkorlarning ma’suliyati xar qachongidan xam ulkandir.

Ko‘rgazmaning asosiy maqsadi istiqlool yillarida san’at va madaniyat sohasida erishilgan yutuqlarimizni yurtimiz xamda xorijiy san’at ixlosmandlariga keng namoyish etish, muyqalam sohiblari, san’atshunoslarning samarali ijodiy muloqoti uchun imkoniyat yaratishdan iboratdir. SHu bois ushbu san’at anjumaniga xalqaro miqiyosda xam qiziqish va e’tibor tobora otmoqda. Jumladan, oltinchi marta o‘tkazilayotgan Toshkent xalqaro vaziyatlarida zamonaviy san’at biyennalesida Buyuk Britaniya, Belgiya, Ozarbayjon, Ukraina, Rossiya, Eron, Singapur, Xitoy, Janubiy korea singari ko‘plab davlatlarning musavvirlari ishtirok etmoqda. Bu yilgi biyennali “Zamonaviy san’at: jamiyat va rassom xududi” shiori ostida o‘tkazilmoqda. Unga taqdim etilgan asarlarda jamiyatning badiiy estetik qarashlari tasviriy san’atning turli janr va uslublarida aks ettirilgan.

Poytaxtimizda muntazam o‘tkazilib borilayotgan san’at haftaliklari, tasviriy san’at ko‘rgazmalari, rang-barang madaniy – ma’rifiy tadbirlar, taqdimot marosimlari, ijodiy anjumanlari bilan jamoatchilikda katta qiziqish uyg‘otmoqda.<sup>26</sup>

Milliy san’at markazida ochilgan O‘zbekiston xalq rassomi Akmal Nur asarlarining ko‘rgazmasi ana shunday tadbirlar sirasidandir.

---

<sup>26</sup> ЎЗА, Назокат Усмонова, “Art Week Style. Uz-2009” санъат ҳафталиги учун тайёрланган хабарлардан. А.Нур ижодига бағишланади. 13. 10. 2009 20:13. интернет.



Yurtimizda milliy an'ana va qadriyatlarni tiklash, asrab-avaylash, madaniyat va san'atni tobora ravnaq toptirish, ijodkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishning izchil mexanizmi yaratilgan. Bu boradagi ezgu ishlar "O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi" jamg'armasi faoliyatida ustivor ahamiyat kasb etdi.

Jamg'arma tomonidan amalga oshirilayotgan milliy madaniyatimiz va san'atimiz rivojiga katta hissa qo'shib kelayotgan ijodkorlarning faoliyatini yurtimiz va xorijiy davlatlarda keng targ'ib etishga qaratilgan loyihalar, turli qiziqarli tadbirlar, badiiy ko'rgazmalar, ijodiy festivallar, konsertlar buning tasdig'idir.

Akmal Nurning betakror va barakali ijodi yurtimiz va xorijiy davlatlarning san'at ixlosmandlari uchun yaxshi tanish. Rassom asarlari milliy ruhi, o'zbekona jozibasi, tomoshabinni chuqur mulohazaga chorlashi barobarida zamonaviy tasviriy san'at an'alariga uyg'unligi bilan xam e'tibor tortadi. Buni rassomning ko'rgazmada namoyish etilayotgan "CHinnigul", "Uch kelin", "YOnar tog'", "Kayfiyat" kabi saksonga yaqin asarida ham ko'rish mumkin.

Rassom tomonidan yaratilgan san'at asarlari ekspozitsiyasini o'z ichiga olgan Akmal Nur kitobining taqdimoti Art Week Style. Uz-2009 badiiy dasturining eng yorqin tadbirlaridan biri sifatida e'tirof etildi.

Style.uz Can'at haftaligining asosiy tashkilotchisi – Fond Forum katalog va badiiy albomlar, fundamental ilmiy izlanishlar, yodnomalar, tadqiqot va monografiyalarni chop etish orqali sohaning taniqli vakillari, san'atshunoslar va olimlarni qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratadi. Mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan galdagi yana bir qiziqarli loyiha – bu O'zbekiston Badiiy Akademiyasi akademigi, O'zbekiston Xalq rassomi, Fond Forum Vasiylik kengashi a'zosi Akmal Nur katalogining nash etilishi bo'ldi.

Akmal Nur O'zbekiston zamonaviy tasviriy san'atining mohir rassomlaridan biri bo'lib, uning ijodiy izlanishlari SHarq va G'arb an'alarining uyg'unlashuvi, milliy o'ziga xoslikni aniqlashga qaratilgan. Uning asarlari falsafiy dunyoqarash asoslari va SHarq mumtoz san'ati an'alarini saqlab qolishga qaratilganligi va shu

bilan bir qatorda bugungi kun insonning dunyoqarashi bilan hamohangligi tufayli ajralib turadi.

Fond Forum sa'y-harakatlari bilan rassomning yoshligidagi ijodiy ishlaridan to hozirgi kungacha bo'lgan asarlari jami 346 ta ijodiy ish namunalari al'bom sifatida nashr etildi.

A.Nur asarlarida badiiy nafosat va ta'sirli ramziy ma'no, sharqona mazmun va sirli latofat, metafora va majoz uning asarlarida mujassamdir. Muhabbat mavzusi muallif ijodida katta o'rin egallaydi. Bu tasodif emas. SHarqda ushbu mavzu alohida ma'no kasb etadi. U nafaqat, biror kimsaga, balki hayotga, butun mavjudotga nisbatan muosabatni, insoniyatning ma'naviy mukammallashuvini ifoda etgan. Akmal Nur ijodi aynan mana shu haqda hikoya qiladi.

To'plam mualliflari xronologik an'analardan voz kechgan holda uni mavzuviy mundarijaviy bo'limlarga ajratib, rassomning ijodiy salohiyatini ochib berishga intilishgan. Katalogning matn joylashtirilgan va tasviriy qismi 5 bo'limga ajratilgan bo'lib, bular "Sarchashmalar", "Ajdodlarning voqif nigohi", "Makon va zamonga safar", "Muhabbatga e'tiqod qilaman", "O'zlikka yo'l" kabilardi.

To'plam tasviriy san'at vakillari, shu bilan bir qatorda, keng omma va san'at muxlislari uchun mo'ljallangan. Ushbu katalogda rassom Akmal Nur ijodini yoritish bilangina cheklanilmagan, balki unda milliy va umumbashariy ma'naviy boyliklarni kuylagkhuvchi mamlakatimiz zamonaviy milliy san'ati ham qamrab olingan.

Mustaqillik yillarida tasviriy san'atning yana bir yangicha zamonaviy yo'nalishlaridan fotosan'at bo'lib, "Binnalle". Bulardan biri fotosan'at an'anasiga aylanib borayotgan "Biennale" ko'rgazmasidir.

An'anaga kura Art Week Style. Uz-2011 san'ati xaftaligi doirasida bo'lib o'tdi.

Bunday muhim, keng qamrovli ko'rgazmalarini shahrimizda o'tkazish yaxshi an'analardan biriga aylanib qoldi. Toshkent yirik zamonaviy san'at markazlaridan biri sifatida qad rostlamoqda. Bu yil mamlakatimizning 20 yilligi nishonlanayotgan bir paytda keng qamrovli rassomlar forumi tashkillashtirilishida

chuqur ramziy ma'no bor. Mustaqillikka erishgan mamlakatda milliy san'atning umumiy in'ikosi va tarkibi tubdan o'zgardi, mavjud g'oyaviy tabu va shablonlardan voz kechish, san'at arboblari erkin ijodiy faoliyat yuritish imkoni tug'ildi.<sup>27</sup>

O'zbekiston rassomlari so'nggi 20 yil ichida zamonaviy jaxon san'ati yutuqlari bilan yaqindan tanishib, ularni nozik milliy an'analar bilan uyg'unlashtirishlari natijasida noyob badiiy natijalarga erishildi.

O'tgan vaqt mobaynida jamiyatni demokratizatsiyalash, zamonaviylashtirish jarayonida rassomlarning roli bir qancha oshgani sezildi. Fuqarolik jamiyati barpo etishda san'atning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Insonning shaxs sifatida kamol topishi uning xuquq va erkinliklarini himoya qilishda uning roli yildan-yilga ortib bormoqda.

SHu boisdan xam Biennale tashkilotchilari qo'yidagi shiorni tanlab olishnimaqsadga muvofiq deb topishdi: "Zamonaviy san'at: rassom xududi va jamiyat".

Bu yil yosh bo'lishiga qaramay, jiddiy loyihalari orqali e'tiborga tushgan rassom va san'atshunoslar direksiya tarkibidan o'rin olgan bo'lib, bu Biennalega tayyorgarlik jarayonining yana bir o'ziga xos jihati sifatida e'tirof etildi.

Biennale ishida Avstriya, Brazilya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Gresiya, Koreya Respublikasi, Livan, Ozarbayjon, AQSH, Rossiya, Turkiya, YAponiya, Saudi Arabistoni, Xitoy, Armaniston, Eron, Latviya, Isroil, Argentina, Vetnam, Ukraina singari etakchii rassom va san'atshunoslar faol qatnashishi kutmoqda.

Biennale dasturidan qo'yidagi tadbirlar o'rin olishi rejalashtirildi:

1. "Gedonizm estetikasi: Taom, Tana, Rux" loyihasi;
2. "Faberje olami" ko'rgazmasi, Faberji (London) zargarlik uyi kumagi ostida;
3. Mashhur rassom va fotosuratlash Igor Vishnyakov (Rossiya) shaxsiy ko'rgazmasi;

---

<sup>27</sup> VI- Тошкент халқаро замонавий санъат ,бенналеси (2011-йил 23-29 Октябр )

4. “Markaziy Osiyo mintaqasi 2011”. Ko‘rgazma kuratori: Sara Reza (Buyuk Britaniya);
5. Retrospektiv loyiha: “Otto Diksga xos jiddiy uslub”, Gyote-Institut/Toshkent ko‘magi ostida;
6. “Go‘zallik va tafakkur “go‘zallashuvi” loyihasi;
7. “O‘zbek matolari: grafik va retromodern grafikasi” loyihasi;
8. “Nemis klassik yozuvchilari asarlari asosida sahnalashtirilgan spektakllar fotoko‘rgazmasi”.

Biennale doirasida “Ko‘pmadaniyatlilikning barham topishi yoki transformatsiya: Biennale pavilonlari: YOshlarijod saroyi, Tasviriy san‘at galeriyasi, Badiiy Akademiya Markaziy ko‘rgazmalar zali, Badiiy akademiya Xalqaro karvon-saroyi, Toshkent Foto Uyi, Amaliy san‘ati muzeyi, Davlat San‘at muzeyi.

VI- Toshkent xalqaro zamonaviy san‘at biennalesi “ Uslub- bu men” zamonaviy san‘at loyihasi, ispan impressionist-rassomlari asarlarining namoyishi xamda Amerikalik musavvir Igor Vishnyakovning “Kumush asar” mavzusidagi shahsiy ko‘rgazmasi bilan boshlandi.

O‘zbek tasviriy san‘ati kino va liboslar dizayni sohasida ham oldingi qadamlarda yuksalib bormoqda bunga misol tariqasida iste’dodli rassom-dizayner Lola Boboeva ijodini olish mumkin.

Lola institutda olgan bilimlarini birdaniga amaliyotga tadbiiq etdi-Qamara Kamolovanning “Bo‘lmagan voqea to‘g‘risida” fil’mi suratga olinayotgan maydonchada diplom ishi loyihasini amalga oshirdi. Bu Lola uchun “katta kino”dagi muvffaqiyatli debyut bo‘ldi. Keyin esa “Vodillik kelin” badiiy fil’mida liboslar bo‘yicha rassom sifatida obro‘-e‘tibor topishiga sabab bo‘ldi. Lola G.SHerammedovning “So‘g‘diyona. Ilohlar maskani”, B.Sodiqov va I.Ergashevning “Amir Temur” fil’mlarida Z.Nosirova rahbarligidagi rassomlar guruhida ishladi. Bu guruh oldida o‘sha tarixiy davr liboslarini yaratishdek murakkabvazifa turardi. Bu nafaqat O‘rta Osiyo, balki YAqin SHarq xalqlari

liboslarini ham, ayni choqda tarixiy manbalarni ham chuqur o‘rganib chiqishni taqozo etdi.

Uzoq davom etgan fil’m yaratish jarayoni nihoyasiga etgach, Lola va boshqa bir necha rassomlarning xayoliga qolgan matolardan zamonaviy moda liboslari kolleksiyasini yaratish fikri keldi.

Lola Boboeva o‘z modellarida SHarq va G‘arbni, an‘ana va yangilikni uyg‘unlashtirishga intiladi. U o‘z iqtidorini madaniyatning turli sohalarida namoyon etishga harakat qiladi. U biznes-shou sohasida ham muvaffaqiyatlarga erishdi. “Bo‘ston” guruhining “Kosmik shou”si va xonanda Sevara Nazarxon bilan olib borgan ishlari jamoatchilik e‘tiborini tortdi. Lola Boboeva feshn-dizayner sifatidagi qisqa faoliyati davrida ko‘plab sovrin va mukofotlar bilan taqdirlandi. YOsh dizaynerlarning “SHahanshohlar saroyidagi kecha” tanlovida (1999 yil Boku) Lola “An‘anaviy usullarni noan‘anaviy qo‘llash” nominatsiyasi bo‘yicha, “Osiyo ramzi 2000” tanlovida “Eng yaxshi ayollar modeli” naminatsiyasi bo‘yicha bosh mukofot (Gran-pri) bilan taqdirlandi. “Hamsa 2000” xalqaro folklor modalari festivalida esa u eng yaxshi ayol-dizayner sifatida mukofotlandi.

Lola Boboeva-avvalo rassom. SHuning uchun kino uchun yaratilganida ham, yuksak modalar yo‘nalishida yangi modellar ustida ishlaganida ham hodisaga rassom sifatida yondashadi.

YUqoridagilardan shuni ko‘rish mumkinki, o‘zbek tasviriy san‘atida zamonaviy jarayon ruhi bilan sug‘orilgan san‘at asarlari safi ortib bormoqda.

## **2.2. Tasviriy san‘atning manaviy hayotdagi o‘rni va ahamiyati**

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prizidenti I.A.Karimov aytganidek “Ma‘naviyat-insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imon e‘tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”<sup>28</sup>.

Milliy istiqlol ma‘naviyati va shu ruhdagi madaniyat masalasi muhim tarbiyaviy muammolarni hal etishda asos bo‘lib xizmat qiladi. SHu sababli milliy

---

<sup>28</sup>I.A.Karimov. Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch.-Toshkent. Ma‘naviyat, 2008.-B.14.

mustaqillik ma'naviyati va uning tarbiyaviy asoslarini o'rganishda alohida sinchkovlik, qunt, sabot, madaniyatlilik va tarbiyaviy onglilik talab etiladi.

Yuksak ma'naviyatli va estetik madaniyatli inson bugungi kun va kelajak xaqida fikr yuritadi, qayg'uradi, shuningdek, kelgusi hayoti va turmushining ravnaqi uchun o'z hissasini qo'shishga intiladi. Zotan, mustaqil mamlakatimizning kelajagi uchun ma'naviyati yuksak, estetik madaniyatli, barkamol insonlar zarur. Shuning uchun yurtboshimiz Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat-kelajak poydevori", degan hikmatli shiorni yanada balandroq ko'tardiki, yuksak ma'naviyat mustaqillikni mustaxkamlash, rivojlantirish va takomillashtirish uchun muhim va zaruriy tamoyillardan biri hisoblanadi. Ma'naviyat va estetik madaniyat-mustaqil fikrlashni shakllantiradi. Bu esa insonning o'zligini anglash. Xalqning madaniy merosini, san'at va badiiy boyliklarni bilishi, qadrlashi, go'zal g'oya, kashfiyotlarni e'zozlashi va bu yo'lda fidoiy bo'lishidan iboratdir.<sup>29</sup>

Ma'naviyat insonning tug'ma xususiyati emas, u faqat insonga xos fazilat bo'lib, jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllanadi. Shu sababli, ma'naviyatlilik va estetik madaniyatlilik insoniy kamolotning asosiy belgilari hisoblanadi. Insonda ma'naviyatni egallash va rivojlantirishga imkon beradigan, irsiyat qonunlari bilan belgilangan tug'ma iste'dod va imkoniyatlar ham bor.

Milliy istiqlool mafkurasini yoshlar ongiga singdirish jarayonida san'at alohida o'rin tutadi. SHuningdek, san'at inson ma'naviy dunyoqarashini kengaytiruvchi, uni shaxs sifatida tarbiyalovchi vositalardan biridir. Tasviriy san'at insonning his-tuyg'ularini, tafakkurini mavhum tarzda emas, balki jonli badiiy qiyofalarda aks ettiradi, chunki u o'ziga xos his-tuyg'ular xazinasidir.

San'at badiiy qiyofa-obraz vositasida to'la namoyon bo'ladi. Badiiy qiyofa san'atkor o'zlashtirib olgan tashqi dunyo bilan uning ichki dunyosi birligida ko'rinadi. San'atni idrok etish insonga hamma vaqt o'zini yaxshi anglashga imkoniyat yaratadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ma'naviy va madaniy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishga bevosita yordam ko'rsatuvchi davlat siyosati ilgari surilmoqda.

---

<sup>29</sup>E.Umarov. "Estetika asoslari" "Sharq" nashriyoti matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxiriyati 2004 y. 62 bet.

Har qanday shakldagi tafakkur, bilish jarayoni tasavvurlar tushunchalar, kategoriyalarning tarkib topishiga olib keladi. Inson tasavvur, tushuncha, kategoriyalar yordami bilan fikr yuritadi, deganda u o‘z ongi yordamida muayyan hayotiy jarayon, o‘zgarishlarni aks ettirishda ulardan foydalanishi nazarda tutiladi. Demak, har bir tasavvur va tushuncha ayni vaqtda voqelik xodisalarining u yoki bu jihatlarini aks ettiradi, binobarin, inson ular orqali olamni biladi, so‘ngra ularni boshqa kishilarga etkazish uchun til shakllariga kiradi.

Atrofimizni tabiat xodisalari, predmetlar, inson tomonidan yaratilgan jism va buyumlar qurshab olgan. Bu olam xilma-xil shakllar, ranglar jilvasi, va boshqa jarayonlari bilan inson hissiyotiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatib turadi. Bu hissiy kechinmalar inson ongida ma‘naviyat atalmish sehri olamni yanada takomil etishi uchun zamin yaratib beradi.

Ma‘naviyat ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi bo‘lib, uning alohida sohasini tashkil etish bilan birga moddiy hayot singari ob‘ektiv reallikka ham egadir.

Ma‘naviyat so‘zining asl mag‘zi o‘zi nimadan iborat, ma‘naviyatning o‘zagini *“ma’no”*, *“ma’ni”* so‘zlari tashkil etishi xaqida adabiyotlarda to‘xtab o‘tilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, *“ma’naviyat”* atamasi bir tomondan, arabcha *“ma’ni”* o‘zagidan hosil bo‘lgan.

Ilk islom islohotchilari ta‘limoticha, Kalom bir talay qismlarga bo‘lingan: borliqdan avvalgi hayot qummun, atomlar haqidagisi-javhar al-fard, sababiy bog‘lanish to‘g‘risidagi ta‘limot-tavallud, mohiyat to‘g‘risidagi ilm-ma‘na hisoblangan. SHunday qilib, narsa-hodisalar, jarayon, tabiat va jamiyat, Ollahning mohiyati *“ma’na”*da o‘z ifodasini topgan. Ikkinchi tomondan, ma‘naviyat ham, uning o‘ziga *“ma’na”* ham qadimgi hind falsafasida keng qo‘llanilgan *“manas”* tushunchasi bilan bog‘langan bo‘lishi mumkin. Bunday taqdirda u do‘stlar va ulfatlar joyi ma‘nosini bildiradi (to‘laroq tafsilot: *A.Erkaev*. Ma‘naviyat-millat nishoni.-Toshkent, *“Ma’naviyat”*, 1997 yil, 16-17-betlar). Bundan tashqari tilshunoslikka oid lug‘atlarda ham *“ma’naviyat”*-ahloqiylik, kishiningichki va ruhiy olami bilan bog‘liq ma‘nolarni anglatishi aytiladi.

Ma'naviy hayot haqiqiy ma'nodagi insoniy hayot, faoliyat muayyan ijtimoiy sohada kishilar kechiradigan hayotdir. Ma'naviy hayot kishilarning mavjudligini real, jonli jarayoni, har qanday darajadagi mavjudligi ifodasi bo'lib, u kundalik oddiy tushunchalardan tortib, insoniyatning eng qaynoq ijodi, xayollari, ruhiy olami, hissiy kechinmalarigacha bo'lgan holatlarini o'z ichiga oladi.

Ma'lumki, san'atning turlari nihoyatda ko'p bo'lib. Ularning eng asosiylari sifatida badiiy adabiyot, musiqa, kino, teatr, me'morchilik, amaliy bezak, sirk, televidenie, tasviriy san'at kabilarni alohida e'tirof etish mumkin.

“Tasviriy” atamasi “tasvirlash” so'zidan olingan bo'lib, unda turli material, xususan, bo'yoq, tosh, gips, yog'och, shuningdek, boshqa badiiy va turdosh materiallar yordamida har xil timsollarning va narsalarning rasm, haykalini ifodalash tushuniladi.

Tasviriy san'at ilm-fan kabi dunyoni, hayotni, tabiatni, xalqlar tarixini o'rganishga xizmat qiladi.

Tasviriy san'at asarlari kishilarning his tuyg'ulariga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ham ega. Kishilar tasviriy san'at asarlarini tomosha qilish orqali, ularda ifodalangan go'zallikni ko'rish orqali o'z hayotlariga ana shunday go'zallikni kiritishga harakat qiladilar, asarlardagi qahramonlarni ko'rib esa ularga o'xshashga intiladilar. San'at asarlarida ifodalangan salbiy voqealar, xunuk xatti-harakatlarni ko'rib, ulardan muayyan xulosalar chiqaradilar, bunday hodisalardan yiroq bo'lishga intiladilar.

Ayniqsa, tarixiy mavzudagi san'at asarlarini tomosha qilganda, o'sha davrdagi tabiat manzaralari, narsa va buyumlar, mehnat va jang qurollari kishilar hayoti, ularning kiyimlari, urf-odatlarini bilan tanishadilar, qurilishlar, binolar haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

Rassomlar o'z asarlarida hayotni qanday ko'rsalar o'shanday emas, balki undagi alohida e'tiborga molik, xarakterli ko'rinishlarini tushurib qoldiradilar, eng muhimlarini esa bo'rttirib ko'rsatadilar. Tanlash va bo'rttirish orqali rassomlar narsa va hodisalarning kishilar tafakkuri va hissiyotlariga samarali ta'sir ko'rsatishga erishadilar. Rassom borliqni shunchaki biladigan kishigina emas,



balki u avvalo, boy tasavvur va tafakkur qilish qobiliyatiga ega bo'lgan ijodkordir. U o'z ijodida borliqni shunchaki aks ettiribgina qolmay, balki unga asoslangan holda nimalarnidir o'zi o'ylab topadi, tasavvur va tafakkur etadi va to'qiydi. Demak, san'at asarlari o'z mazmunida borliqni aks ettiribgina qolmasdan, ayni paytda ular rassomning g'oyalarini ifodalaydi, tomoshabin ongini boyitadi. SHu bilan birga bunday asarlar kishilar ruhiyatiga ta'sir ko'rsatib, ular ma'naviy olamini, bilim va tajribasini kengaytiradi.<sup>30</sup>

Shuni aytish kerakki, ma'naviy ishlab chiqarish eng avvalo, mehnatning ijodiy karakterini namoyon qiladigan sohadir. San'atkor, olim, rassom, bastakorning mehnati haqiqatdan ijodiy mehnatdir.

Inson ma'naviy dunyoqarashini shakllanishida ma'naviy sohalarning shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy sohaning asosini esa ma'naviy ishlab chiqarish tashkil etadi. Bu jarayonlar inson ongida g'oyalar, qarashlar, tasavvurlarni ishlab chiqadi. Tarixan ongni ishlab chiqarish shakllari aniq, siyosiy, ahloqiy, estetik va hokazo tarmoqlarni tashkil etadi.

Ma'naviy ishlab chiqarish natijalari sekin-asta ma'naviy qadriyatlarga aylanib boradi. Ma'naviy qadriyatlar (ilmiy g'oyalar, qarashlar, badiiy asarlar, rassomlik asarlari) ma'naviy muloqotning mohiyatini ifodalaydi. Natijada ijtimoiy ong omma o'rtasida keng ravishda tarqala boshlaydi.

Ma'naviy qadriyatlardagi asosiy narsa-predmetlilik emas, balki, moddiy shaklga kirgan ma'naviy mazmundir. Masalan, kitob, kartina, musiqa asari tashqi ko'rinishi bilan emas, balki eng avvalo ulardan qanday mazmun ifodalanayotganligi bilan bizni qiziqtiradi. Bu holat ma'naviy qadriyatlarning informatsion (axborotga oid) fazilatlar mohiyatini tushunib etishni bildiradi. Buning uchun esa belgilar va obrazlar tizimini aniqlash va o'ziga xos ma'no tashuvchi xususiyatlarini fahmlash orqali erishiladi. Masalan tasviriy san'at (rassomlik) ni tushunish uchun san'atdagi shartlilikning mohiyatini anglab etish zarur, busiz rassom kechirgan holatni tasavvur etib bo'lmaydi.

---

<sup>30</sup> P.Хасанов. “Тасвирий санъат асослари” F.Фулум номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи. Тошкент.2009 й. 4 бет.

Tomoshabin, o'quvchi, musiqa ishqibozlarida san'at va fan arboblari darajasidagi ijodiy malaka etarli bo'lmaydi. SHu sababli, asarning sirtqi ko'rinishi ortida ma'naviylikning eng umumiy jihatlarini ko'ra olishlarida qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Buni bartaraf etish uchun ular ijodning barcha "sir"larini bilishi kerak; ijodkor asarining predmetli-sirtqi pardasiga barham berib, ijodkor bilan ma'naviy aloqaga kira olishi zarur, biroq buning uchun ma'rifatli va madaniyatli kishi bo'lishi kerak; fan, san'at asoslarining mohiyatini tushunish uchun esa uning qonuniyatlarini idrok eta olish qobiliyati zarur. Maktabda olib boriladigan ta'lim va tarbiyaning ma'nosi ham ma'naviy qadriyatlarni idrok etish madaniyatini tarbiyalashga yo'naltirilgan, bilimlarning asosiy sohalari bilan muomala qila olish malakasini shakllantirishni nazarda tutadi. Mohiyatan, ta'lim ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish yo'li hamdir.

Tasviriy san'at, san'at turlari ichida inson ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishga benixoya katta hissa qo'shuvchi ma'naviy omillardan biridir.

Rassom yaratgan asarning mavzusi hayot lavhalari asosida vujudga keladi. Hayot manzaralariga tabiat ko'rinishi, inson, gullar va tabiat bizga in'om etgan boshqa ne'matlar, jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy hodisalar kiradi. Ularni tasvirlarda xis eta bilish shaxs ongida ma'naviy dunyoqarashni shakllanishiga zamin yaratadi.

Haqiqiy ma'naviylik faqat jonli insonning ongida, uning tafakkuridadir. Masalan, rassomlik asari-shunchaki oddiy predmetlar emas, rassomning ijodiy faoliyati natijalari asosida gavdalangan.

Tasviriy san'at ilm-fan kabi dunyoni, hayotni, tabiatni, xalqlar tarixini o'rganishga xizmat qiladi. Tasviriy san'atning paydo bo'lishi ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladi. Bu vaqtda kishilar tevarak atrofda sodir bo'layotgan voqealarni odam va hayvonlarning tasvirini toshlarga chizib, ularni kesib turli ko'rinish va mazmundagi, ularni kesib turli ko'rinish va mazmundagi haykallarni yasaganlar.

Qadimdan kishilar san'at, tabiat hodisalari va kishilarning o'zaro munosabatlari, faoliyatlariga, xulqiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaganlar.

Tasviriy san'at sirlarini o'rganish, unga qiziqish har bir shaxsda o'ziga xos bo'ladi. Ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan jadal o'zgarishlar xozirgi davr kishilarining ruhiy kechinmalariga turlicha ta'sir etadi.

San'at asarlarini shaxs tomonidan ko'rib mushohada etilishi, ayniqsa rangtasvir janrida yaratilgan suratlar ijodkorning ichki dunyosi, borliqni, uning go'zalligini ranglar orqali ko'rish va tasavvur etish, haqiqiy san'at asarini qadrlashni o'rgatadi.

Tasviriy san'at insonning murakkab aql-zakovati, tafakkurini, tabiatda sodir bo'lib turadigan katta-kichik o'zgarishlarni, uzluksiz falsafiy g'oyalar va fantastik obrazlarni ta'sirchan ifodalashga qodir. Tasviriy san'atda hodisa, voqea va ko'rinishlar doirasining to'laligi turli yo'nalishlardagi janrlar orqali ochib beriladi.

Musavvir tasviriy san'at vositalari yordamida betakror ijodiy asarlar yaratib, insonni hayratga soladi, diliga quvonch bag'ishlaydi, turli kechinmalar orqali ruhiyatni oziqlantiradi.

Tasviriy san'atda rang tabiatda mavjud barcha narsalar shakllarini, atrof muhit go'zalligini, turli kayfiyat va his-tuyg'ularini o'ziga xos nafis jilvalar orqali ifodalay oladi.

Rassom M.M.Fatxullinning fikricha, hozirgi davrda "dizayn va bezak san'ati ustuvor. Bugun hamma joyda-reklamada ham, poligrafiyada ham, turar joy intererini jihozlash, joylashtirish kabilar bilan shug'ullanadigan firmada ham dizaynerga talab katta"<sup>31</sup>. Nisbatan mahobatli san'atga ham talab katta ". SHu bois ko'chalar, maydonlar, madaniyat muassasalari, choyxonalar, bozorlar kishilarning kayfiyati, didini ko'tarish, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish lozim. Insonning madaniyat bilan muloqotida san'at tur va janrlarining shunchaki sintezini emas, balki haqiqiy go'zallikni taqdim etish lozim.

Ma'naviyat tushunchasi insonda estetik ongning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Insonning borliqqa estetik munosabati, yondashuvi uning estetik his-tuyg'usi, didi, estetik bahosi va estetik ideali qanchalik darajada rivojlanganligiga bog'liqdir.

---

<sup>31</sup> Фатхуллин М.М. Замонавий санъатга бир нигоҳ, Санъат-Тошкент.2007.Б.11.

Ma'naviyat inson ruhiy dunyosini o'zida aks ettirib turadi. Albatta, uning qamrovi keng va kattadir.

Bu masalada shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, san'at ma'naviyatning tarkibida turadi. San'atsiz ma'naviyat jilosiz, sovuq, xunuk, balkim qo'pol shaklga kirib qoladi.

Ma'naviyat san'at hisobigagina chiroy topadi, go'zallashadi, nafislashadi, o'ziga jalb qiluvchanlik xususiyatiga ega bo'ladi, nafosatli bo'lib turadi. Umuman, tasviriy san'at hayotimizning qaysi sohasi bilan munosabatda turmasin, ularga estetik ta'sir o'tkazib, ularni go'zallashtiradi, nafislashib borishini ta'minlaydi.

Shuningdek, tasviriy san'at ham ma'naviyat hisobiga mazmunan boyib, ta'sirchanligi kuchayib boradi.

Ma'naviyat tasviriy san'at, ahloq, mafkura, falsafa, din, ruhiyat hamisha hamnafas bo'ladi.

Kishilarning ma'naviy hayoti o'z mohiyat-negiziga ko'ra ularning moddiy hayotini ifoda etadi. In'kos-inson ongining xususiyati, shu asosda u olamni, kishilarni, tabiatni bilishga intiladi va bularning barchasi to'g'risida bilim hosil qiladi. Shunday qilib, yuqorida ko'rib chiqqan tushunchalarimiz safiga yana bir tushuncha kelib qo'shildi: Bilish. Bilish-inson ma'naviy olamining hamda jamiyatning butun ma'naviy hayotining asosidir. Bilish-bu jonli, faol jarayon. Kishila bilimni turli yo'llar bilan qo'lga kiritadilar: ayrimlar sayohat qiladi, boshqalari kitob o'qiydi, fil'm ko'radi, uchinchilari-kishilar bilan muloqotga kirishadi, to'rtinchilari fan nazariya, falsafa bilan shug'ullanadi va hakoza, biroq bilishning eng muhim manbai va inson, jamiyat, madaniyat mavjudligining asosi mehnatdir. Demak, bilim ham aqliy ham jismoniy mehnat tufayli, shuningdek, odamlarning o'zaro bir-birlari bilan muloqotlari negizida yuzaga keladi.

Bilish tafakkur bilan bog'langan, tafakkur esa amaliyotga asoslanadi, unga yo'naltirilgan bo'ladi. Bilish natijalari, tafakkur natijalari, ularning birligi, yig'indisi sifatida bilim yuzaga keladi. Bilim obraz shaklida (moddiy ob'ektning ideal inkosi sifatida); tushuncha shaklida (bilimning tilida nutqiy ifodasi); kategoriya shaklida (ob'ektlarning o'zaroaloqasi aks ettiradigan murakkab

tushuncha); qonun(voqealarning ichki turg'un aloqalari tizimlarini tashkil etish usullari, ularning o'zgarishi, taraqqiyoti) shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Qo'lga kiritilgan bilimlarning barcha bu ko'rinishlari umumlashtirilgan tarzda empirik, nazariy, kundalik, falsafiy harakter kasb etishi mumkin.

Bilim nafaqat fanga, balki san'atga ham tegishlidir. Har bir badiiy asar o'z mazmuniga tegishli bo'lgan emotsional-hissiy jihatlardan tashqari yana hayot to'g'risida muayyan bilimlarni ham ifoda etadi.

Bilish, tafakkur, bilim jonli, faoliyatli jarayonlarni rang-barang shaklda ifoda etadi va u inson ongining funksiyasidir. Ong esa insonning o'z-o'ziga, boshqalarga, tabiatga, olamga yaxlit munosabati tufayli yuzaga keladi.

Darxaqiqat, insonning hayotga qo'yadigan birinchi qadamini uning bilish tomon qo'ygan qadami desa bo'ladi. Bilim-fanning asosi. Biroq san'at, falsafa, siyosat, ahloq ham bilimga asoslanadi. Ma'naviy qadriyat tushunchasida ma'naviy anglash orqali ma'naviy yaratuvchanlik maxsuli yotadi. Kishilar ma'naviy olamining shakllanishi va taraqqiyoti, ularning ma'naviy boyishi uchun qadr-qimmatga ega bo'lgan narsa-hodisalar ma'naviy qadriyatlar deyiladi. Ular inson faoliyati, mehnati, yaratuvchanligi, ijodkorligining mahsuli hisoblanadi. Masalan, rassom, olam haqidagi asarlarning muallifi sifatida ma'naviy qadriyatlarni yaratuvchisidir. Bunday ijodiy jarayonda ulkan aqliy kuchlar sarflanadi, tafakkurning eski andozalari bartaraf etiladi. Yaratilgan tasvirlar oddiy emas, balki madaniyatli, ma'naviy ishlab chiqarish natijalari sifatida yuzaga keladi. Ularda bilimning asoslari, insoniy munosabatlarning tajribalari gavdalanadi, bizning ongimizga go'zallik, ezgulik, haqiqat to'g'risida tasavvurlarni olib kiradi. Ularning qadriyat kategoriyasi sifatida e'zozlanishi boisi ham shunda.<sup>32</sup>

Haqiqiy ma'naviylik faqat jonli insonning ongida, uning tafakkuridadir. Boshqa ma'naviy qadriyatlar esa inson faoliyatining natijasi bo'lib, ma'naviylikning mehnat maxsulotlariga, moddiy predmetli shaklga ko'chganligi hisoblanadi.

---

<sup>32</sup> Э.Умаров, М.Абдуллаев "Маънавият асослари" "Шарк"нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти Тошкент 2005. 22-24 бет.

Masalan, rassomlik asari-shunchaki oddiy predmet emas, unda rassomning ijodiy faoliyati gavdalanadi. San'at asarlarining ma'naviy jihatlari ularning moddiyligi bilan uzviy bog'langan. Bularda alohida odam-ijodkor ongi faoliyati moddiylashadi. Boshqa tomondan, narsa-hodisalar bu ijodkor ma'naviy faoliyatining natijalarini ham targ'ib etadi. Bu erdagi birinchi holat-ijod, ikkinchi holat-ma'naviy qadriyatlarni iste'mol qilish bo'lib, insonning madaniy dunyosi shu bilan yaratiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, kishilar ishlab chiqarishni shunchaki emas, balki o'z moddiy ehtiyojlarini qondirish, iste'mol qilish uchun tashkil qiladilar.

Ma'naviy ishlab chiqarishda yana tasviriy san'atga murojaat qilamiz, ma'naviy qadriyatlardagi asosiy narsa-predmetlilik emas, balki moddiy shaklga kirgan ma'naviy mazmundir. Masalan, kartina asari tashqi ko'rinishi bilan emas. Balki eng avvalo, unda qaday mazmun ifodalanayotganligi bilan bizni qiziqtiradi.

Bunday holat ma'naviy qadriyat, undagi informatsion (axborotga oid) fazilatlar mohiyatini tushunib etishini bildiradi. Bunga esa belgilar va obrazlar tizimini aniqlash, ularning o'ziga xos ma'no tashuvchi xususiyatlarini fahmlash orqali erishiladi.

Masalan, tasviriy san'at (rassomlik)ni tushunish uchun san'atdagi shartlilikni mohiyatini anglab etish zarur, buningsiz rassom kechirgan holatni tasavvur etib bo'lmaydi.

Ma'naviy qadriyatlarga hos xususiyatlardan yana biri tafakkur va hissiyotning eng umumiy shaklda namoyon bo'lishidir. Xoh san'atda, xoh fanda, xoh falsafada bo'lsin, bu narsa o'ziga xos moddiylashadi.

Moddiylashtirish jarayoning o'zi amaliy faoliyat bo'lib, malakalar, qobiliyatlarni gavdalandirishni taqozo qiladi, u amaliyot sifatida esa ma'naviylikni moddiy narsalarga ko'chiradi.

Ma'naviy faoliyatning yana bir xususiyati shundaki, amaliyot o'z ichiga nihoyatda rang-barang mehnat malakalarini qamrab oladi, shu sababli, ma'naviy qadriyatlarni yaratishdan ko'zlangan asosiy maqsad-bu moddiylikni ideallikni "bo'ysundirish"dan iborat bo'ladi. Masalan, rassom olamni boshqalarga o'xshab

mushohada etadi, unga o'z munosabatini bildiradi. Biroq "ko'rgani"ni, kechirganini, kuzatishlarini hamma ham moddiylashtira olmaydi, buning uchun, ya'ni ranglar bilan ijod qilish uchun alohida qobiliyat bo'lishi lozim. Gipoteza asosida fikrlovchi olim o'z fikrlarini eksperiment bilan mustahkamlashi kerak, eksperiment esa o'ziga xos malakani talab qiladi. Rassom uchun qobiliyatli bo'lishdan tashqari yana rivojlangan tuyg'u, chuqur xissiyot qobiliyati zarur.

Tomoshabin, tasviriy san'at ishqibozlarida san'at va fan arboblari darajasidagi ijodiy malaka etarli bo'lmaydi. SHu sababli, asarning asarning sirtqi ko'rinishi ortida ma'naviylikning eng umumiy jihatlarini ko'ra olishlarida qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Buni bartaraf etish uchun ular ijodning barcha "sir"larini bilishi kerak; ijodkor asarining predmetli-sirtqi pardasiga barham berib, ijodkor bilan ma'naviy aloqaga kira olishi zarur, biroq buning uchun ma'rifatli va madaniyatli kishi bo'lishi kerak; fan, san'at asoslarining mohiyatini tushunish uchun esa uning qonuniyatlarini idrok eta olish qobiliyati zarur.

Ma'lumki, ma'naviyatning sub'ekti. YA'ni yaratuvchisi, ijodkori ham insondir. Ma'naviyatning vujudga kelishi va rivojlanishida biz uning ikki muhim jihatiga e'tibor berishimiz lozim; Har qanday ma'naviyatning shakllanishi avvalambor kishilarda, jamiyatda unga bo'lgan ehtiyoj va talablarni qondirish asosida vujudga keladi. Jamiyatda shu ehtiyoj, talablar shakllanmaguncha ma'naviyat ham, madaniyat ham vujudga kelmaydi. Demak, ma'naviyat ijtimoiy ehtiyoj, talab. Xohishni ifodalab, kishilar, guruhlar, umuman jamiyatning ongli ijodiy faoliyati asnosida voqelikka aylanadi.

Tasviriy san'at go'zallikni yaratsa, falsafa shu go'zallik haqida fikr-mulohaza yuritadi, ya'ni musavvir san'at asari yaratadi, san'atshunos yoki faylasuf o'sha san'at haqida tafakkur qiladi. San'at mulohaza, tortishuv, tanqidiy fikrlar hisobiga rivojlanib boradi.

Tasviriy san'at ustida tafakkur bo'lmasa, u mazmunan kengayib, chuqurlashib yoki yuksalib borish, yo'nalishlarini yoritish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Bu-tasviriy san'atning falsafadan manfaatdorligidir. Falsafaning

tasviriy san'atdan manfaatdor jihatlari haqida gapiradigan bo'lsak, albatta, falsafa tasviriy san'atga qarab qolgan emas, ya'ni falsafa borliq, tabiat, hayot, insonning o'zligi mavzularida doimiy fikr yuritib turadi. Lekin u tasviriy san'at haqida tafakkur qilish hisobiga go'zallashib boradi.

Tasviriy san'atning muhim jihatlardan biri-uning ahloqiyligidir. U hech qachon ahloqsizlikni ko'tara olmaydi, sababi ahloqsizlik aks etgan jarayon, voqelik hech qachon san'at hisoblanmaydi.

Tasviriy san'at mafkura hisobiga qudratli bo'lsa, falsafa hisobiga rivojlanuvchan bo'lsa, dinga hizmat qilar ekan, o'zligini u orqali ham namoyon qilib turish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Din qanday e'tiqodiy yo'nalishda ekanidan qat'iy nazar, san'atdan, uning barcha turlaridan unumli foydalaniladi. Maftunkor inshootlar, ulardagi bezaklar, kuy-qo'shiqlar shu bilan bir qatorda diniy mavzulardagi rasmlarning san'atkorlik bilan yaratilishi yuqoridagilarga misol bo'lishi mumkin.

Tasviriy san'at insoniyatning tabiiy mayl va hayotiy ehtiyojlariga mos timsollarga zarurati va ularni tasvirda qayta tiklashga intilishi natijasida shakllana boshlagan. Bugungi kunda taraqqiyot bosqichi, ongliligi, madaniyati darajasidan qat'iy nazar, er yuzidagi barcha xalqlarda san'atning bu turi mavjuddir. Tasviriy san'at xalqning fikr-o'yi, dunyoqarashi, qiziqishi, his-tuyg'ularini ifodalash bilan birga, asar ijodkori tuyg'ularining sog'lomligini, idrokining yorqin va tiniqligini, kuzatishda ziyakligini, didini va ifoda mahoratini ko'satib turadi.

Chingiz Axmarov asarlarida ma'naviy go'zallikning tarannum etilishi o'ziga xos va u tomoshabin ongida go'zallik va nafosat tuyg'ularini boyitishda katta ahamiyatga ega.

Uning aksariyat asarlarini unga ruhan yaqin bo'lgan kishilar-yozuvchilar, shoirlar aktyorlar va rassomlarning portretlari tashkil etadi. Mashhur rus balerinas M.Plisetskaya, raqqosa M.Turg'unboeva, rassom R.Temurov, shoira Zulfiya, aktyot A.Xidoyatov portretlari shular jumlasidandir.. Bularning har birida rassom o'z qahramonining tashqi qiyofasidagi idividual barkamollikni hamda ular ruhiy dunyosining o'ziga xosligini, shaxsning ijodiy intilishlaridagi yaxlitlikni ochib



berishga harakat qiladi. CHingiz Axmarovning mahobatli rangtasvir ustasi sifatida yaratgan asari Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri foyesi devorlariga ishlangan devoriy rasmlarini kuzatgan har bir tomoshabin undagi voqelik va ranglar jilosi uyg'unligidan ma'naviy dunyo ozuqa oladi. To'rt yillik mehnat jarayonida (1944-1947 y) rassom bevosita navoiy davri va shoir asarlari ruhiga hamohang sakkizta kompozitsiya yaratdi. Bir andozadagi to'rtta devoriy suvrat teatrning birinchi qavatidagi foyega ziynat bag'ishlaydi. Ularning har birida kuy, raqs va she'riyatni o'zida ifoda etuvchi go'zal qizlar timsoli tal'qin etilgan. Ikkinchi qavatidagi devoriy rasmlar navoiyning mashxur "Hamsa"ga kirgan "Hayrat-ul abror", "Farxod va SHirin", "Layli va Majnun", "Saddi Iskandariy" va "Sabbai sayyor"dostonlaridagi voqealarga bag'ishlangan.

### **Tasviriy san'at. Mussavirlik**

Tasviriy san'at insoniyatning tabiiy mayl va xayotiy extiyojlariga mos timsollarga zarurati va ularni tasvirda qayta tiklashga intilishi natijasida shakllana boshlagan.

Bugungi kunda taraqqiyot bosqichi, ongliligini, madaniyati darajasidan qat'iy nazar, er yuzidagi barcha xalqlarda san'atning bu turi mavjuddir.

Tasviriy san'at xalqning fikr-o'yi, dunyoqarashi, qiziqishi, his-tuyg'ularini ifodalash bilan birga, asar ijodkori tuyg'ularining sog'lomligini, idrokining yorqin va tiniqligini, kuzatishda ziyrakligini, didini va ifoda mahoratini kursatib turadi. Tasviriy san'at turlariga musavvirlik, xaykaltaroshlik, chiziqli rasm (grafika)lar kiradi.

Tasviriy san'atning insonni lol qoldirib, unga kuchli estetik ta'sir ko'satuvchi turlaridan biri bu – musavvirlikdir.

Musavvirlikda ijodkor xayot voqeligidan o'zi tanlab olgan biror bir mavzuni ranglar vositasida tasvirlab u orqali o'z g'oyasini ifodalab beradi. U rang orqali insonlar kayfiyatidagi ko'tarinkilik yoki tushkunlikni, ularning ichki ruhiy holatini xam yoritib bera olish imkoniyatiga egadir. Musavvir tanlagan

makvzularda ma'lum bir mahalliy xalqlarning dunyoqarashi, turmush tarzi, ommaning fikr-o'yi, maqsad va intilishlari, tafakkur dunyosi aks etib turadi.

San'at darajasidagi musavvirlik asari ham ma'lum bir omillar asosida yaraladi. Ularga:

1. Musavvirlikda shakl va mazmun birligi.
2. Musavvirlikda g'oya va mavzu
3. Musavvirlikda ifoda usullari.
4. Musavvirlikda ranglar.
5. Musavvirlikda voqealar bayoni.
6. Musavvirlikda budiiy obraz.
7. Musavvirlikda san'atkor mahorati.<sup>33</sup>

### **Musavvirlikda shakl va mazmun birligi**

Musavvirlikda xam san'atilik uning shakl va mazmun muvozanati asosiga quriladi. Misol uchun, oddiy bir qo'ng'izchaning rasmi tasvirda 3x3m xajmli maydonga ishlanishi san'at, undagi g'oyaviylik nuqtai nazaridan maqsadga to'g'ri bo'lmaydi.

SHunday ekan, tarixiy shaxs-butun bir xalq taraqqiyotiga xissa qushib o'tgan buyuk Amir Temur portretini xam, aytaylik 25x25 sm xajmda ishlanishi ham shakl va mazmun muvozanatiga putur etkazadiki, ijodkor ifodalashni ko'zda tutgan voqealikni bunday tor xajmda to'laqonli aks ettirishga, o'z g'oyasini yoritishga qiynaladi.

### **Musavvirlikda g'oya va mavzu**

Musavvirlikda ifoda usullari xaqida so'z borganda, tasvirlanayotgan voqelikning mazmuni aks ettiruvchi belgi (shtrix)larni va ranglarni ajratib ko'rsatish mumkin.

---

<sup>33</sup> M.Назаров. "Эстетика асослари" Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги хузуридаги "Адолат" нашриёти. Тошкент 2005 й. 67-68 бет.

Musavvirlik o‘z ko‘nglida kechayotgan g‘oyani, his-tuyg‘ularini, kechinmalari, tasavvurlarni aynan belgi (shtrix) va ranglar orqali aks ettirib beradi.

Misol uchun, Kamoliddin Behzodning “SHayboniyxon” asarini olaylik. Rivoyatlarga ko‘ra Behzod SHayboniyxonning portretini ishlar ekan, uning yon biqinidagi xanjari sopini ataylab ilonga o‘xshatgan, o‘tirgan to‘shagi rangini esa “Sen xalq qonini to‘kish hisobiga xukmdorlik qilyapsan”, degan ma’noda ataylab qizil rangda bergan ekan. SHundan hulosa chiqarib olavering!

### **Musavvirlikda ranglar**

Musavvirlikda go‘zallik g‘oya va mavzuga bog‘liq xolda yaralar, ekan, shuningdek, ranglarning yorqinligidan, ularning o‘zaro xamoxangligidan, o‘zaro uyg‘unligidan xam yuzaga keladi.

Agar asarda ranglar xamohangligiga putur etsa, ranglar uyg‘unlasha olmay sochqinlik kelib chiqadi.. Go‘zallik esa voqelikni mavjud qilib turgan unsurlardagi shakl va mazmun kabi sizga yaxshi ma’lum bo‘lgan jixatlar bilanbir qatorda ulardagi ranglarning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida ham hosil bo‘lib turadi.

Qaerdagi biror musavvirlik asari ko‘zingizga g‘alati, hashaki tuyulsa, bilingki, u asarda ranglar g‘oyaviylik jixatdan kuchli bo‘lgan har qanday asarni ko‘rimsiz, qimsiz, e’tiborsiz qiladi.

### **Musavvirlikda voqealar bayoni**

Musavvirlikda ham albatta shakl va mazmun birligi, ifoda usullarining, ranglar tanlanishining ahamiyati katta. SHunga qaramay, unda voqealar bayoni xam asarning g‘oya va mavzusini, mazmundorlikni kuchaytiruvchi omil sifatida muxim o‘rin tutadi.

San’atkor tanlab olgan voqelikni o‘z asarida mazmunan qayta yaratishda xarakat va holatlarni shunday joylashtiradiki, natijada asarning mazmuni tiniqib, jalb qiluvchanlik xususiyatikuchayadi.

Masalan, Rafaelning o'sha "Sikstin madonnasi" portretini olaylik. Ayol o'z farzandi bilan shunchaki chiroyli bir bog'da, yo bo'lmasa, shunchaki suv bo'yida tasvirlanmagan. Agar shunday bo'lsa, mavzu saqlangan holda asarning g'oyasi ochilmay qolishi mumkin edi. Asarda esa yuz-kuzidan pokizalik, beg'uborlik, muloyimlik ufurib turgan ayol o'z farzandi bilan markaziy maydonda va undan keyin, orqa maydonda-parda ortida juda ko'plab odamlarning boshi, tasvirlanayotgan voqelikning old qismida esa chap tomonda kishi, o'ng tomonda kishi, o'ng tomonda yoshroq ayol musaffo nigohini ayol va uning farzandi tomon qomatini yarim o'g'irgan holda turibdi. San'atkor tasvirda mazmunnishundan ifodalamoqdaki, uning natijasida yuqorida aytib o'tilgan g'oya kelib chiqmoqda. Bu – erda musavvir g'oya va mavzuni yoritish maqsadida mazmuni mana shunday yorug' ifodalayapti. Bu – san'atkorlarning voqealarni bayon qilish mahoratidir va u orqali xam asarning badiiy mukammalligi ta'minlanmoqda.<sup>34</sup>

### **Musavvirlikda badiiy obraz**

Musavvirlik asarida xam unda yaratilayotgan obrazlar o'z tuyg'ulari, kechinmalari, xatti-harakatlari bilan voqealar jarayoniga mos kelishi juda muximdir. Chunki, bu holat mazmunning aniqligiga ta'sir ko'rsatadi.

Badiiy obrazlarning his-tuyg'ulari, fazilatleri, holat va harakatlari asar mazmuni bilan uyg'unlashgandagina, asarning g'oyasi aniq va tiniq aks etadi.

Sizga tushunarli bo'lishi uchun Rafaelning o'sha "Sikstin madonnasi" portretiga qaytamiz, ayol qo'lidagi farzandi bilan markaziy maydonda turar ekan, o'sha mas'um qiyofa bilan oldidagi ayolga nafratomuz boqqan holda ishlanishi, yo ungapichoq o'qalgan holda turishi asarda kuzatilayotgan badiiy obrazning xis-tuyg'usiga mutlaqo mos kelmay tomoshabin uchun ma'nosizlik kelib chiqishi mumkin edi. Unda endi asarning g'oyaviyligiga putur etar, asar bugungikungacha etib kelmasligi, etib kelsa xam mashxurlikka erishmasligi ehtimoldan holi emas edi. San'atning eng muxim belgilaridan biriesha boqiyligidir.

---

<sup>34</sup> М.Назаров. "Эстетика асослари" Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги хузуридаги "Адолат" нашриёти. Тошкент 2005 й. 70 бет.

Qarang, yaratilayotgan badiiy obraz g'oyaga, mazsundan aniqlashayotgan voqealar jarayoniga mos tushishi qanchalar muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Musavvirlikda san'atkor mahorati**

Tabiiy go'zallikni rasmda qayta yaratishda musavvirning fantaziyasi, sezgirligi, go'zallik qirralarini ilg'ovchanligi, tajriba va mahorati muhim ahamiyatga egadir.

Musavvirning nozik didi, mohir qo'li, tanlangan mavzusining hayotlilik, g'oyasining haqiqatchanligi, shuningdek, ranglarning tabiiyligi san'at asari yaratilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Asarda ranglar tabiiy va uyg'unlikda berilsa-yu, musavvir tajribasiz bo'lsa asar beo'xshov, rassom mohir-u, lekin ranglar notabiiy bo'lsa-asar rangdor; rassom iste'dodli, ranglar tabiiy va o'zaro mutanosiblikda, uyg'un bo'lsa-yu, mavzu g'ayrli tabiiy bo'lsa, asar jozibasiz, yoqimsiz bo'lib qolaveradi.

Musavvirning mahorati asarni san'at darajasiga ko'tarilishda muhim hisoblangan yuqoridagi omillar mutanosibligini ta'minlay olishdadir. SHunda badiiy mahsuli sifatida musavvirlik san'at asari dunyoga kelishi mumkin bo'ladi.

### **Tasviriy san'at. CHiziqli rasm**

Tasviriy san'atning musavvirlik turi, bilan bir qatorda turib, san'at darajasiga ko'tarila oladigan yana bir turi, bu – chiziqli rasm. Uning tasvir ifodasi turfa ranglarda emas, balki oq maydonda qora chiziq yoki qora maydonda oq chiziq yordamida yaratiladi. Tasviriy san'atning bu turi xam xuddi boshqa san'atlar kabi qator omillar hisobiga oddiy asardan san'atdarajasiga ko'tarilishi mumkin. Ularga:

1. CHiziqli rasmda shakl va mazmun birligi.
2. CHiziqli rasmda g'oya va mavzu.
3. CHiziqli rasmda ifoda usullari.
4. CHiziqli rasmda voqealar bayoni.
5. CHiziqli rasmda badiiy obraz.

6. CHiziqli rasmda ijodkor mahorati kabilar kiradi.

### **CHiziqli rasmda shakl va mazmun birligi**

Chiziqli rasmdagi go‘zallik ham xuddi musavvirlik san’ati singai uningshakil va maxmunmuvozanati asosiga quriladi.

Chiziqli rasmda g‘oya va mavzu.

Chiziqli rasm mazmuni ham asar go‘zalligini tashkil etuvchi omildir. SHuning uchun ham unda g‘oya va mavzu yoritilishi uning san’atiyligida muhim o‘rin tutib turadi.

### **2-bob boyicha xulosalar**

Tabiiy go‘zallikni rasmda qayta yaratishda musavvirning fantaziyasi, sezgirligi, go‘zallik qirralarini ilg‘ovchanligi, tajriba va mahorati muhim ahamiyatga egadir.

Musavvirning nozik didi, mohir qo‘li, tanlangan mavzusining hayotliligi, g‘oyasining haqiqatchanligi, shuningdek, ranglarning tabiiyligi san’at asari yaratilishida muxim ahamiyat kasb etadi.

Anashu ma’lumotlarga asoslanadigan bo‘lsak yuqorida keltirilgan fikrlarning barchasi inson badiiy tafakkurini rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

2-bob va uning paragraflari san’at asarlarini badiiy o‘rganish orqali shaxsning ma’naviy kamolotining yuksalish bosqichlarini kuzatishimiz mumkin.

## XULOSA VA TAVSIYALAR

Ma'naviy qadriyatlarga hos xususiyatlardan yana biri tafakkur va hissiyotning eng umumiy shaklda namoyon bo'lishidir. Xoh san'atda, xoh fanda, xoh falsafada bo'lsin, bu narsa o'ziga xos moddiylashadi.

Moddiylashtirish jarayoning o'zi amaliy faoliyat bo'lib, malakalar, qobiliyatlarni gavdalantirishni taqozo qiladi, u amaliyot sifatida esa ma'naviylikni moddiy narsalarga ko'chiradi.

Ma'naviy faoliyatning yana bir xususiyati shundaki, amaliyot o'z ichiga nihoyatda rang-barang mehnat malakalarini qamrab oladi, shu sababli, ma'naviy qadriyatlarni yaratishdan ko'zlangan asosiy maqsad-bu moddiylikni ideallikni "bo'ysundirish"dan iborat bo'ladi. Masalan, rassom olamni boshqalarga o'xshab mushohada etadi, unga o'z munosabatini bildiradi. Biroq "ko'rgani"ni, kechirganini, kuzatishlarini hamma ham moddiylashtira olmaydi, buning uchun, ya'ni ranglar bilan ijod qilish uchun alohida qobiliyat bo'lishi lozim. Gipoteza asosida fikrlovchi olim o'z fikrlarini eksperiment bilan mustahkamlashi kerak, eksperiment esa o'ziga xos malakani talab qiladi. Rassom uchun qobiliyatli bo'lishdan tashqari yana rivojlangan tuyg'u, chuqur xissiyot qobiliyati zarur.

Tomoshabin, tasviriy san'at ishqibozlarida san'at va fan arboblari darajasidagi ijodiy malaka etarli bo'lmaydi. SHu sababli, asarning asarning sirtqi ko'rinishi ortida ma'naviylikning eng umumiy jihatlarini ko'ra olishlarida qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Buni bartaraf etish uchun ular ijodning barcha "sir"larini bilishi kerak; ijodkor asarining predmetli-sirtqi pardasiga barham berib, ijodkor bilan ma'naviy aloqaga kira olishi zarur, biroq buning uchun ma'rifatli va madaniyatli kishi bo'lishi kerak; fan, san'at asoslarining mohiyatini tushunish uchun esa uning qonuniyatlarini idrok eta olish qobiliyati zarur.

Yuqorida keltirilgan fikrlarning barchasi barkamol avlod tarbiyasining eng muhim omillaridan biri xisoblanadi.

Shu bois xulosa o'rnida shuni aytish joizki yoshlar ma'naviy tarbiyasida tasviriy san'atning alohida o'rni va sifatlari gavdalanadi. Kelajak avlodni

mukammal shaxs etib tarbiyalashda ko'rgazma zallari tashkil etib unda yosh va tajribali ijodkorlarning eng so'nggi ijod namunalari kolleksiyasi namoyishlarini targ'ib etib borishni ommalashtirib boorish zarur. Bu esa ma'naviy mukammal shaxsning idel ko'rinishlarini gavdalanib borishiga xizmat qiladi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov “Mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirish-bosh maqsadimizdir” O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 22 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. Xalq so‘zi. 2014 yil 6-dekabr, 237-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov “2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish-ustuvor vazifamizdir”. “O‘zbekiston ovozi” 2015 yil 17-yanvar. 7-8-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov. “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori“. Toshkent. 1997 yil
4. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” .Toshkent 2008 yil.
5. Mirziyoyev SH.M. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, 2018 yil 7 dekabr). – “Xalq so‘zi” gazetasi, 2018 yil 8 dekabr, № 253 (7211).
6. Mirziyoyev SH.M.”Mamlakatimizda ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus”.
7. Qadr-qimmatim, tayanchim, va iftixorimsan, mustaqil O‘zbekiston. T.Ma’naviyat. 2013.
8. O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonuni.
9. 2019 yilda qaerda nechta yangi bog‘cha qurilishi ma’lum bo‘ldi// “Darakchi”, 2019 yil №1 (1028),5-bet.
10. O‘qituvchining ijtimoiy mavqeini oshirish o‘quvchi kamolotining bosh omilidir// “Xalq so‘zi”, 2018 yil 18 iyun.

11. Jadal rivojlanayotgan iqtisodiyot uchun zamonaviy kadrlar kerak // “Xalq so‘zi”, 2018 yil 25 oktyabr.
12. I.Raxmonov “Perspektiva” Toshkent “O‘qituvchi” nashriyoti 2000 yil.
13. T.Qo‘ziyev, E.Egamov, T.Qanoatov, A.Nurqobilov “Rangtasvir” “San‘at” jurnali nashriyoti Toshkent-2003 yil.
14. A.Egamberdiyev, S.Saidova, R.Rajabov “Tasviriy va me‘morchilik san‘ati tarixi” “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2007 yil.
15. B.Boymetov. “Qalamtasvir” Toshkent “ILM-ZIYO” nashriyoti 2007 yil.
16. O.mo‘yinov “Rangtasvir” Toshkent “Sharq” matbaa-aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati 2007 yil.
17. G‘.A.Artiqov. “Rangtasvir texnikasi va ashyolar texnologiyasi” Toshkent “Sharq” matbaa-aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati 2007 yil.
18. S.S.Bulatov “Rangshunoslik” O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent-2009 yil.
19. R. Hasanov “Tasviriy san‘at asoslari” G‘.Gulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi Toshkent-2009 yil.
20. Umarov E. Teatr estetikasi. Toshkent. Fan. 2009 u.
21. Umarov M. Manon Uyg‘ur estetikasi. Toshkent. Musiqa. 2007.
22. B.N.Oripov. Tasviriy san‘atni o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi. Toshkent-“Ilm-Ziyo”nashriyoti. 2013.
23. M.Mirsoliyeva, G.Ibragimova. Ta‘lim texnologiyalari va pedagogik mahorat. Toshkent. 2015.

#### **INTERNET SAXIFALARI**

24. <http://artclassic.edu.ru/>
25. <http://artschool.agava.ru/>
26. <http://www.manus.baikal.ru/rus/es21.ntm>
27. [http://www.rubricon.com/artp\\_1.asp](http://www.rubricon.com/artp_1.asp)